YANGI YILINGIZ QUTLUG‘ BO‘LSIN!

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

Postda
На посту

O‘zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

2025-yil
3-yanvar
juma
№ 1 (4695)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz



BAYRAM SHUKUHI KEZAR YURT UZRA

Osoyishtalik va tinchlik hukmron yurtimizda Yangi yil boshlab bergan bayram shukuhi davom etmoqda. Respublikamizning barcha hududlaridagi markaziy maydonlar, xiyobonlar va ko‘ngilochar maskanlarda o‘rnatilgan ulug‘vor archa atrofida turli tadbirlar bo‘lib o‘tmoqda. Ertaknamo, zavq-shavqqa to‘la ushbu bayramda, ayniqsa, kichkintoylarning quvonchi cheksiz. Jajji bolajonlarning sho‘x-shodon kulgulari bayramga yanada o‘zgacha kayfiyat baxsh etmoqda.



Bu kabi tadbirlarda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta’minlashda ichki ishlar organlari xodimlarining alohida o‘rni bor, albatta. Bayram tadbirlari bo‘lib o‘tayotgan hudud atrofidagi ko‘chalarda YPX inspektorlari harakat xavfsizligini ta’minlayotgan bo‘lishsa, kirish-chiqish joylari hamda fuqarolar sayr qilib yurgan hududlarda boshqa sohaviy xizmat vakillari o‘z vazifasini ado etishmoqda. Shu bois bayram ko‘tarinki ruhda davom etmoqda.

YOSHLAR – KELAJAK BUNYODKORI

JISMONIY VA JANGOVAR TAYYORGARLIK MUHIM

– deydi katta leytenant Javohir Abdufatoxov

Lavhamiz qahramoni 2022-yili Jamoat xavfsizligi universitetini tamomladi. Xonobod shahar IIB kadrlar bilan ta’minlash guruhi katta inspektori etib tayinlangan yosh ofitserga bo‘lim boshlig‘ining o‘rinbosari, kapitan Eldor Qirg‘izov murabbiylik qildi.



O‘tgan yil boshida Javohir Abdufatoxov Andijon viloyati IIB Ma’naviy-ma’rifiy ishlar va kadrlar bilan ta’minlash xizmati Jismoniy va jangovar tayyorgarlik bo‘limi katta inspektori lavozimiga o‘tkazildi.

– Jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi samarali kurashish uchun nafaqat huquqiy, balki jismoniy va jangovar tayyorgarlik, quroldan foydalanishni bilish ham zarur, – deydi u. – Amaliyot ko‘rsatganidek, jinoiy xatti-harakatlarning oldini olish bo‘yicha har qanday tadbir natijasi ko‘p jihatdan ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy va jismoniy tayyorgarligi darajasiga bog‘liq. Yosh xodim shaxsiy tarkibning kasbiy, xizmat va jismoniy tayyorgarligi bo‘yicha mashg‘ulotlarini tashkil etish, dastlabki kasbiy ta’limga yo‘naltirish, xodimlarni qo‘shimcha tayyorlash va malakasini oshirish, ular orasida amaliy sport turlarini ommalashtirishda jonbozlik ko‘rsatib kelmoqda.

Boris KLEYMAN,
o‘z muxbirimiz.
Andijon viloyati.

TADBIR

«XAVFSIZ HUDUD – DOLZARB 50 KUN»:

TAHLIL VA NATIJALAR

Xorazm viloyatida o‘tkazilgan «Xavfsiz hudud – dolzarb 50 kun» maxsus profilaktik tadbiri davomida bozorlar, korxona va tashkilotlar, o‘quv va davolash muassasalari hamda jamoat joylarida o‘rganish ishlari olib borilib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha zarur choralar ko‘rildi. Xonadonlarda pasport-viza hamda ov qurollarini saqlash va undan foydalanish qoidalariga rioya etilishi yuzasidan tekshirishlar o‘tkazildi.



Muqaddam sudlangan, jinoyat sodir etishga moyil bo‘lgan hamda profilaktik hisobga olingan shaxslar bilan yakka tartibda suhbatlar olib borildi. Jinoyat sodir etib, tergov va sud organlaridan yashirinib yurgan qidiruvdagi shaxslarni izlab topish va jazo muqarrarligini ta’minlash maqsadida tezkor tadbirlar amalga oshirildi. Yo‘l harakati hamda yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya etmagan shaxslarga nisbatan ham tegishli hujjatlar rasmiylashtirildi.

O‘tkazilgan tezkor tadbirda shuningdek, Jinoyat kodeksining tegishli moddasida ko‘rsatilgan jinoyatni sodir qilib, tergov va sud organlaridan yashirinib yurgan yangiariqlik X.X. Urganch shahrida qo‘lga olinib, tergov hibsxonasiga joylashtirildi. Hazorasp tumani IIB TQX Jinoyat qidiruv guruhi xodimlari o‘tkazgan tezkor tadbirda esa «Buyuk siymo» mahallasida yashovchi K.T. o‘z xonadonida



30250 dona «Britanik» yozuvli pirotexnika vositasi, «Milano» yozuvli 1749 quti tamaki mahsulotini qonunga xilof ravishda saqlab kelayotgani ma’lum bo‘ldi.

Umuman olganda, tadbir davomida turli huquqbuzarliklar sodir etgan 53213 nafar shaxsga nisbatan ma’muriy bayonnomalar rasmiylashtirildi. Shundan belgilangan qonun talablarini buzgani uchun 231 nafar shaxsga nisbatan ma’muriy qamoq jazosi tayinlandi. Jinoyat sodir etib, sud hamda tergov organlaridan qochib yurgan 37 kishi qo‘lga olinib, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar ixtiyoriga topshirildi. Ochilmay kelinayotgan 24 ta jinoyat fosh qilindi. Shuningdek, tadbir davomida ijtimoiy yordamga muhtoj bo‘lgan oilalar ham aniqlanib, ularga tegishli tashkilotlar hamda muassasalar homiyligida amaliy ko‘mak berildi.

Xudoybergan JABBOROV,
o‘z muxbirimiz.
Xorazm viloyati.

KASB FIDOYISI

EL XIZMATIGA OTLANIB

Yangi yil bayrami va dam olish kunlari ko‘cha va xiyobonlar, istirohat bog‘lari hamda savdo majmualari har qachongidan gavjum bo‘ldi. Yurtdoshlarimizning eminerkin, tinch va xotirjam bayram nishonlashlari uchun ichki ishlar organlari xodimlari ko‘chalarda, jamoat maskanlarida tun-u kun hushyor holatda xizmat olib borishdi.

Farg‘ona viloyati IIB Birinchi mintaqaviy hudud saf bo‘linmalari yo‘l-patrul xizmati otryadi 1-safarbar guruhi inspektori, safdor Nabijon Kamolovni ham Farg‘ona shahar ko‘chalarida uchratdik. Qosh qoraygan, izg‘irin va sovuq havo bo‘lishiga qaramay, yo‘llarda tirbandliklarning oldini olish maqsadida avtotransport vositalari harakatini tartibga solayotgan bu yigit xalqqa munosib xizmat qilishni sharafli burch deya ta’rifladi.

– Egnimizga ichki ishlar organlari kiyimini kiyib, el xizmatiga otlangan ekanmiz, demak, bu bizning muqaddas burchimiz. Fuqarolarimiz yo‘llarda bexavotir harakatlansa, ko‘ngilsiz hodisalar sodir bo‘lmasa, o‘z burchimizni sidqidildan ado etayotgan bo‘lamiz. Bayram kunlari mas’uliyatimiz ikki hissaga oshdi, ammo charchaganimiz, sovqotganimiz yo‘q. Odamlarning ko‘tarinki kayfiyati, ko‘zlaridagi quvonch, iliq mehri bizga kuch berib turibdi.

Ma’lumot uchun aytish zarurki, safdor Nabijon Kamolov Toshloq tumanida tug‘ilib o‘sgan. Ichki ishlar organlaridagi ilk xizmat faoliyatini 2017-yilda qo‘riqlash xizmatida boshlab, 2019-yildan buyon yo‘l-patrul xizmatida munosib davom ettirib kelmoqda.

Abduvosit SIDIQOV,
o‘z muxbirimiz.
Farg‘ona viloyati.



ФАХРИЙЛАР – ФАХРИМИЗ

ҚАТОРДА НОРИНГ БЎЛСА...

Умрини касбига бахшида этган инсон, албатта, саодатга эришади. Эл ичра ҳурмат-эътибор қозонади. Ички ишлар органларида ҳам касбини ардоқлаб, касбидан бахт топган фахрийлар бисёр. Қашқадарё вилояти ИИБ Фахрийлар кенгаши аъзоси, истеъфодаги старшина Муродулла Ҳасанов ана шундай инсонлардан бири.



Косон туманининг Бўлмас қишлоғида, оддий деҳқон оиласида дунёга келган Муродулланинг болалиги қатағон даврига, ўсмирлиги машъум II жаҳон уруши йилларига тўғри келди. Эсини таниганидан ҳамма қатори далада ота-онасига кўмаклашди. Фронт ортини мустаҳкамлашда куч-ғайратини аямади. Йигирма ёшида қишлоқдаги ўрта мактабни тугатиб, Қарши темир йўл идорасига, отасининг ёнига ишга кириб, саккиз нафар укасингилларининг кам-кўстини тўлдириш учун кўмаклашди.

1965 йили ички ишлар органида хизматни бошлаган Косон тумани ИИБ милиционери М. Ҳасановга подполковник Умидилло Ҳайитов устозлик қилди.

Лавҳамиз қаҳрамони ҳаётида кунлар тунга, тунлар тонгга уланиб кетган вақтлар кўп бўлди. Ўша пайтда криминоген вазият оғир бўлган туманда хизмат қилиш осон эмас эди. Шу боис устозларидан олган билим ва кўникмаларини амалиётда қўллаб, ўзига хос тажриба ва малака тўплади. Бурч ва масъулиятни ҳамма нарсадан устун қўйди.

Кейинги йилларда хизматни туманнинг ўзида, махсус комендатурада давом эттирган Муродулла Ҳасанов ҳар куни бу ерда сақланаётган муқаддам жиноят содир этган шахслар билан мулоқот қилишига тўғри келди.

Хизмат фаолиятининг сўнгги йилларида Қарши шаҳар ИИБ Қўриқлаш бўлимида бўлинма командири бўлиб хизмат қилган Муродулла Ҳасанов кўплаб ёш ходимларга устозлик қилди. Истеъфодаги подполковник, марҳум Эркин Бердиев, истеъфодаги майор Ибодулла Ҳусанов, истеъфодаги капитан Темир Алматовларга касб сирларини ўргатди.

Муродулла ота иззат-икром билан пенсияга кузатилганига ҳам 30 йил бўлибди. Турмуш ўртоғи Ўғил ая билан 9 нафар фарзандни вояга етказишди. Улар бугун турли соҳаларда меҳнат қиляпти. Иккинчи ўғли Ҳошим Ҳасанов ота касбини давом эттириб хизматга кирди. Ўттиз йилдан ортиқ вақт мобайнида ППХ батальонида сафдорликдан бўлинма командири вазифасигача бўлган йўлни босиб ўтиб, 2018 йили пенсияга чиқди.

От изини той босар деганларидек, Муродулла бобонинг набираси, оддий аскар Аббос Эшқувватов ҳозирги кунда ИИВ Қоровул қўшинларига қарашли 7533-ҳарбий қисмда назоратчи лавозимида хизмат қилмоқда.

Фарзандлар даврасида ўтириб дилдан суҳбат қуриш, уларга йўл-йўриқ кўрсатиш Муродулла ота учун одатга айланган. Айниқса, сулола ишини давом эттираётган набирасига доим эл-юрт учун фидойилик ва садоқат билан ҳалол хизмат қилишни уқтиради. Ҳалол хизмат ҳеч қачон эътибордан четда қолмаслигини ўз ҳаёти мисолида ҳикоя қилиб беришдан чарчамайди.

– Халқимизда қаторда норинг бўлса, юкинг ерда қолмайди, деган ибора бор, – дейди 90 ёшни қаршилаган Муродулла ота. – Ҳар йили байрамларда фарзандларим ва набираларим қаторида, вилоят ИИБ раҳбарияти ва Фахрийлар кенгаши аъзолари йўқлаб туришади. Мана, улар яқингинада ҳам уйимизга келиб, Янги йил байрами ва қутлуғ ёшга тўлганим билан табриклаб кетишди.

Ортда қолган йиллардан, ўтаётган умридан мамнун Муродулла ота Ҳасанов бугунги кунда 17 нафар набира, 13 нафар чевара қуршовида Юртбошига сиҳат-саломатлик, мамлакатга тинчлик, халқимизга омонлик тилаб, бахтиёрликда умргузаронлик қилмоқда. Ҳаётнинг мазмуни, моҳияти шу аслида!

Зокир ОБИЛОВ,
Қашқадарё вилояти ИИБ бошлиғи маслаҳатчиси, истеъфодаги подполковник.

Суратда: *Муродулла ота Ҳасанов ўғли ва набираси билан.*

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA

SENGA BOG‘LIQ ERTANGI KUN

Namangan davlat universitetida 18419 nafar talaba tahsil oladi. Oliy ta’lim dargohiga biriktirilgan profilaktika inspektori, mayor Azizbek To‘xtaboyev talabalarga o‘zi haqidagi ma’lumot va telefon raqamlari aks etgan tashrifnomalarni tarqatgan.



Universitetda professor-o‘qituvchilar va boshqa xodimlar orasida 2024-yil davomida huquqbuzarlik holatlari sodir etilmadi. O‘quv yili davomida «Davomat», «Tig‘», «Oriyat» tadbirlarida darsga o‘z vaqtida kelmayotgan, ichki tartib-qoidalarga bo‘ysunmayotgan yoshlar aniqlanib, ular bilan tushuntirish ishlari olib boriladi. Yoshlar o‘rtasida giyohvandlik va psixotrop moddalar aylanishining oldini olish yuzasidan narkologiya dispanseri xodimlari bilan hamkorlikda davra suhbati tashkil etildi.

– Har bir talabaning yurish-turishi doimiy e’tiborimizda. Ijarada yashovchi talabalar ro‘yxati shakllantirilib, ular istiqomat qilayotgan xonadonlarga birma-bir borib, yashash sharoitlarini o‘rgandik. Jinoyat va huquqbuzarlikka moyil talabalar bilan yakka tartibda profilaktik ishlar amalga oshirib kelmoqdamiz, – deydi mayor Azizbek To‘xtaboyev.

Amalga oshirilgan targ‘ibot tadbirlari natijasida universitetda jinoyat sodir etish holati 2024-yilda avvalgi yilga nisbatan keskin kamaydi.

Shuningdek, korrupsiyaning oldini olish va uning kelib chiqish sabablarini o‘rganish maqsadida turli tadbirlar tashkil etildi. Huquq-tartibot va mudofaa organlari hamkorligida yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, ijarada yashovchi talabalar holidan xabar olish, iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ma’naviy-ma’rifiy, vatanparvarlik va sport yo‘nalishlari bo‘yicha jami 180 ta targ‘ibot tadbiri o‘tkazildi.

Ayni paytda universitetda 3 nafar profilaktika inspektori faoliyat yuritmoqda. Mayorlar Dilmurod Karimov va Zuhra Karimova bilan hamkorlikda talabalar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olish maqsadida «Harbiy qismlarga tashrif», «Jazoni ijro etish muassasalariga tashrif», «Adliya va yoshlar», «Prokuror va yoshlar», «IIB va yoshlar», «Deputat va yoshlar», «Uch avlod uchrashuvi» tadbirlari tashkil etildi.

Universitetda xorijlik talabalar ham tahsil oladi. Yaqinda tibbiyot fakultetida tahsil oluvchi hindistonlik talabalar o‘rtasida o‘tkazilgan davra suhbatida universitet ichki tartib-qoidalari va odob-axloq kodeksi bilan tanishtirildi.

– O‘tkazilayotgan barcha tadbirlar universitet hududida jamoat tartibini saqlash, jinoyat va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir, – deydi mayor Zuhra Karimova.

Gulchehra BUVAMIRZAYEVA,
o‘z muxbirimiz.
Namangan viloyati.

Suratda: ***mayor Azizbek To‘xtaboyev.***

■ Сурхандарьинская область

СОЦИАЛЬНАЯ ПОДДЕРЖКА В ДЕЙСТВИИ







В рамках программы «От бедности к процветанию» в республике реализуются социально значимые проекты.

Ключи от тридцати домов, возведенных в Шерабадском районе под патронажем УВД области, переданы нуждающимся семьям, имеющим на иждивении инвалидов. Среди новоселов жители Шерабадского, Ангорского и Музрабадского районов.

В мероприятии, состоявшемся по этому случаю, приняли участие хоким области, руководители секторов. Они поздравили новоселов с важным событием, отметили труд строителей, вручили подарки детям из семей, включенных в Единый реестр социальной защиты.

Соб. корр.

ИСТОРИЯ В ЛИЦАХ



На архивном фото – эксперт-криминалист за работой. Он очень сконцентрирован: изучает объекты, изъятые на месте совершения противоправного деяния. Важно не упустить ни одной детали...

На снимке: *эксперт-криминалист лейтенант Д. Джамалов. 1982 год. Фото из архива ГУВД города Ташкента.*

■ Самаркандская область

ЗАДЕРЖАНЫ НА МЕСТЕ ПРЕСТУПЛЕНИЯ


В Булунгурском районе с поличным задержали мужчин, пытавшихся украсть металлические детали с железной дороги.

Глубокой ночью капитан Б. Нарзикулов сообщил о задержании двух лиц при попытке кражи металлических деталей железной дороги.

На место происшествия прибыла следственно-оперативная группа. Выяснилось, что злоумышленниками являются мужчины уже немолодого возраста – жители махалли имени Бобура города Янгиера Сырдарьинской области У. К. и махалли Маданият Галляаральского района Джизакской области А. Н. Последний работает водителем автомашины «Газель», принадлежащей предприятию по переработке металла, в которую воры грузили добытое. В целом «кладоискатели» успели «натаскать» 650 килограммов металлических деталей.

Как говорится, «сколько веревочке ни виться, конец все равно будет один»: по данному факту возбуждено уголовное дело, ведется следствие.

Абдулла ИБРАГИМОВ, майор.



14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni





IIV QOROVUL QO‘SHINLARI TARIXI MUZEYIGA BIR NAZAR

Ichki ishlar vazirligi Qorovul qo‘shinlari ham bugungi kunda yurtimiz tinchligi va osoyishtaligining tayanchi, xalqimiz vatanparvarligi va qudratining haqiqiy ishonchiga aylanib ulgurdi. Ortga nazar tashlar ekanmiz, qudratli armiyamizning ajralmas qismi bo‘lmish ushbu qo‘shin mustaqilligimizning 33 yili davomida murakkab, ammo sharafli yo‘lni bosib o‘tganiga amin bo‘lamiz. Tarix muzeyiga tashrif buyurgan har bir kishi bunga yana bir karra amin bo‘lib, ma’naviy ozuqa olishi aniq.





Abu KENJAYEV,
o‘z muxbirimiz.

PROBATSIYA

INSON QADRI
har narsadan ustun

Karmana tumani «Talqoq» mahallasida istiqomat qilayotgan Davron Safoyev (ism-shariflar o‘zgartirildi) 50 yoshni qoralagan. Qaramog‘ida 3 nafar farzandi bor. O‘tgan yili «Shuncha payt turdi, hech kim so‘ramadi, endiyam hech kim payqamaydi», deb mahallada qarovsiz qoldirilgan temir buyumlarni yashirincha pullab yubordi. Ularning egasi zarur bo‘lganda izlab topolmagach, tuman IIBga murojaat qiladi. O‘g‘rilik jinoyati sodir etganlikda ayblangan Davron Safoyev mulk egasiga yetkazilgan zararni qoplagach, probatsiya nazoratiga o‘tkazildi.



Alisher Navoiy mahallasida yashovchi Alisa Hakimova esa davlat korxonalaridan birida ijtimoiy yordam bo‘yicha mas’ul xodim vazifasida ishlardi. U mansab vakolatidan foydalanib, ijtimoiy yordam maqsadiga mo‘ljallangan pullarni o‘z manfaati yo‘lida sarflab yubordi. Ushbu qilmishi oshkor bo‘lgach, qonuniy chora ko‘rilib, u ham probatsiya nazoratiga olindi.

Karmana tumani IIB Probatsiya guruhi nazoratida 442 nafar mahkum turadi. Kapitan Feruz Shamsiddinov ularning sud tomonidan belgilangan cheklovlarga rioya etishini nazorat qiladi.

Probatsiya guruhi inspektori, kapitan Feruz Shamsiddinovning tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikdagi sa’y-harakatlari tufayli o‘tgan yil davomida probatsiya nazoratidagi shaxslardan 157 nafarining bandligi ta’minlandi. Jumladan, Alisa Hakimova to‘qimachilik korxonalarining biriga texnik bo‘lib ishga joylashdi.

– Vazifamiz nazoratdagi shaxslarning nafaqat belgilangan tartib-qoidalarga, taqiqlarga rioya etishini ta’minlash, balki hayotda halol yashashiga, kasb-hunar egallashiga, jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashish. Zero, yurtimizda inson aziz, uning qadr-qimmati har narsadan ustun, – deydi kapitan Feruz Shamsiddinov.

Yaqinda Jinoyat ishlari bo‘yicha tuman sudining sayyor yig‘ilishida 29 nafar mahkumning ishi qayta ko‘rib chiqildi. Ulardan to‘g‘ri xulosa chiqargan, mehnatga halol munosabatda bo‘lgan, mahallasi va ish joyida ijobiy tavsiflangan 28 nafari muddatidan ilgari jazodan ozod etildi. Belgilangan tartibga rioya etmay, jazoni o‘tashdan bo‘yin tovlagan bir nafar mahkumning jazosi esa og‘irrog‘iga almashtirildi.

Probatsiya guruhi xodimlari nazoratdagi mahkumlar bilan muntazam profilaktik targ‘ibotlar tashkil etib boradi. Ushbu tadbirlar chog‘ida ularga ilgari yo‘l qo‘ygan xatolarini tuzatishlari uchun imkon borligi ta’kidlanadi.

Mahliyo XOLOVA,
o‘z muxbirimiz.
Navoiy viloyati.

2025-YIL – ATROF-MUHITNI ASRASH VA «YASHIL» IQTISODIYOT YILI

O‘SIMLIK VA HAYVONOT DUNYOSINI ASRASH

kechiktirib bo‘lmas vazifa

Jizzax va Navoiy viloyatlarining bir qismini egallagan, umumiy yuzasi 370 ming gektarni, uzunligi 250 kilometrni, o‘rtacha kengligi 26 kilometrni tashkil qiladigan «Aydar – Arnasoy – Tuzkon» ko‘llar tizimi mamlakatimizda baliqchilikni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, mazkur havza millionlab jonzodlarga oshyon. Binobarin, yanvar–mart oylarida 400 ga yaqin turdagi qushlar qishlaydi.

Qushlarning 13 turi xalqaro, 24 turi O‘zbekiston «Qizil kitob»iga kiritilgan. Xuddi shunday, ko‘lda 10 dan oshiq turdagi baliqlar uchraydi. Ko‘l tevaragi tabiatida bo‘ri, shoqol, tulki, bo‘rsiq, tustovuq, quyon, echkiemar kabi ko‘plab jonivorlar yashaydi.

Jizzax viloyati ichki ishlar organlari xodimlari, milliy gvardiyachilar hamda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi vakillari bilan hamkorlikda hududning o‘simlik va hayvonot dunyosini asrashga astoydil kirishishgan. Chunonchi, o‘tgan yil davomida vaqti-vaqti bilan reydlar o‘tkazib turildi va bu jarayonda noqonuniy baliq ovlagan 25 nafar shaxs ushlandi. Jumladan, 5-dekabr kuni ko‘l bo‘yida Forish tumanining Oybek nomli mahallasida yashovchi Sh.B. boshqaruvidagi «Nexia» to‘xtatib, tekshirilganda avtoulov yukxonasida 105 kilogramm qizilqanot borligi aniqlandi. 11-dekabr kuni esa Forish tumanining «Qizilqum» mahallasida istiqomat qiluvchi E.M. «Cobalt» yukxonasida, 135 kilogramm oqsila olib ketayotgani ma’lum bo‘ldi.

Umuman olganda, huquqbuzarlardan 1 tonna 673 kilogramm baliq, 6 ta qayiq, 4 ta elektr qarmoq, 6 ta akkumulyator, 7 ta ov quroli hamda 69 ta to‘r hujjatlashtirib olingan. 19 ta avtomashina va 4 ta mototsikl jarima maydonchalariga joylashtirilgan. O‘z navbatida, qonunbuzarlarga 22 million 140 ming so‘m miqdorida jarima jazosi tayinlandi. Xuddi shunday, 5 nafar shaxs jinoiy javobgarlikka tortildi.

Bundan tashqari, atrof-muhitga zarar yetkazish bilan bog‘liq huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olish maqsadida patrul-post xizmati batalyoni xodimlaridan iborat 6 ta guruh faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. O‘tgan yil davomida soha vakillari viloyat hududida 844 ta reyd o‘tkazib, yerni yaroqsiz holga keltirish, daraxt va butalarni kesish, atmosferaga ziyon yetkazish, chiqindi to‘kish, tamaki mahsulotlarini jamoat joylarida iste’mol qilish bilan bog‘liq qonunbuzarliklarni aniqlashgan. Pirovardida huquqbuzarlarga nisbatan 86 million 140 ming so‘mlik jarimalar belgilandi.

Jizzaxlik ichki ishlar organlari xodimlari Atrof-muhitni asrash va «yashil» iqtisodiyot yilida tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan tadbirlarni yanada kuchaytirishni rejalashtirishgan.

Alijon ABDUSATTOROV,
o‘z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.



QO‘SHQANOTLAR



HAYOT YO‘LLARI TUTASHGAN «KABUTARLAR»

Leytenantlar Ahror Esanov va Dildora Xo‘jayeva bolaligidan bitta maktabda o‘qishdi. Oxir-oqibat ular bir-biriga ko‘ngil qo‘yib, hayot yo‘llari tutashdi.

Avvaliga IIV 1-sonli Toshkent akademik litseyida, so‘ngra IIV Akademiyasida ham birga o‘qish nasib qildi. Ahror huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati, Dildora esa ekspert-kriminalistika faoliyati yo‘nalishini tanlab adashishmadi.

Oliy ta’lim dargohini tugatganidan so‘ng leytenant Ahror Esanov Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tumani IIOFMB 5-sonli IIBga qarashli Amir Temur nomli mahallada profilaktika inspektori lavozimida faoliyatini boshladi.

Ustozlaridan kasb sir-asrorlarini o‘rgandi, jamoatchilik bilan huquqbuzarliklarning oldini olishda astoydil xizmat qildi. Hozirgi kunda O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasiga profilaktika inspektorligida xizmatni davom ettirayotgan lavhamiz qahramoni shu sohani tanlaganidan afsuslanmaydi. Mirobod tumani IIOFMB Ekspert-kriminalistika bo‘limi eksperti Dildora Xo‘jayevadek turmush o‘rtog‘i bilan faxrlanadi.

Yillar davomida sinovdan o‘tgan munosabatlar ahdu paymonga aylanib, 2024-yilda ikki yosh turmush qurishdi. Shu tariqa, o‘tgan yil ular uchun unutilmas voqea bo‘lib qolishi bilan bir qatorda, qo‘shqanot sifatida boshlangan hayotlariga poydevor ham qo‘yildi.

Endigina katta hayot ostonasiga qadam qo‘yib, yuksaklik sari parvoz qilayotgan «qo‘sh kabutar»ning orzu-maqsadlari bisyor. Xizmatda va turmushda ham qiladigan ishlari ko‘p. Ota-bobolarimiz aytganidek, ularning totuvligiga ko‘z tegmasin va oilaviy baxti to‘kis bo‘lib, qo‘sha qarib yurish nasib etsin.

Sarvar SOBIROV,
o‘z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

14 января – День защитников Родины

МОЛОДЕЖНЫЕ ЛИДЕРЫ

Командование Караульных войск МВД Республики Узбекистан и Совет Союза молодежи Ташкентской области провели совместный учебно-методический семинар.






Мероприятие на тему «Цели и задачи первичных организаций Союза молодежи, созданных в воинских частях», собрало офицеров и солдат – активистов молодежного движения. Выступавшие подчеркивали значение патриотического воспитания, целенаправленного осуществления духовно-просветительской работы в войсках.

Состоялся также конкурс «Самый активный лидер». По итогам всех туров первое место занял лидер первичной организации воинской части № 7553 Караульных войск МВД **старший лейтенант Бобомурод Латипов.** Призовых мест удостоены лидеры первичных организаций воинских частей № 7551 и № 7552 **лейтенант Зохиджон Жураев и старший лейтенант Абдукарим Рахматов.** Победителям вручены дипломы и памятные подарки.

Вадим ТУХТАЕВ,
рядовой.

■ **Бухарская область**

ПОМОГАЯ ЛЮДЯМ



Старший сержант Азим Шарипов один из преданных своей профессии сотрудников. Он работает инспектором-дежурным центра реабилитации лиц без постоянного места жительства ООП СОБ УВД области.

С дипломом Бухарского автодорожного техникума Азим начинал водителем Управления пожарной безопасности областного УВД. Позже продолжил службу в должности инспектора.

В центр на основе решений Бухарского и Навоийского областных судов направляют лиц, личность которых необходимо уточнить, нуждающихся в помощи. В прошедшем году в центре прошли реабилитацию 322 человека, в том числе 43 женщины и 25 граждан иностранных государств.

– Мы устанавливаем личности доставленных в центр граждан, помогаем в получении паспорта, содействуем трудоустройству. Работаем с каждым индивидуально, в необходимых случаях привлекаем психологов и врачей для реабилитации, –отмечает старший сержант А. Шарипов.

Азим примерный семьянин. Вместе с супругой Нафисой Мухаммедовой воспитывают двух сыновей и дочь. Старший сын Шохрухжон – студент Бухарского медицинского института. Сын Шохжахон учится в Бухарском академическом лицее МВД, дочь Парвинахон школьница.

– Пусть Новый год принесет всем благополучие, спокойствие, мир и достаток. Успехов во всех начинаниях, крепкого здоровья, – говорит герой очерка.

Мирзокул АХАДОВ,
соб. корр.

■ **Республика Каракалпакстан**

ЭФФЕКТИВНОСТЬ СЛУЖБЫ

В УКД ОВД города Нукуса обратился гражданин Б. Б., который заявил о пропаже велосипеда. На место происшествия прибыла следственно-оперативная группа, в составе который был инструктор кинологического отделения МВД младший сержант Ш. Жарекеев со служебной собакой по кличке Док. Собака практически сразу взяла след. Вскоре злоумышленника задержали. Им оказался ранее судимый С. Б.

Сотрудниками кинологического подразделения отдела ООП СОБ МВД республики в минувшем году раскрыто 251 преступление, в том числе 166 краж, 77 деяний, связанных с незаконным оборотом наркотиков.

В отделении содержится 45 собак, специализирующихся по различным направлениям.

– Для повышения эффективности службы особое внимание уделяем систематическому повышению мастерства сотрудников. Организованы месячные курсы специальной подготовки, за год 14 кинологов повысили квалификацию. Сотрудники со служебными собаками прошли обучение в учебном центре в Ташкенте, – говорит начальник отделения подполковник Р. Утеулиев.

Представители подразделения успешно выступают на соревнованиях. Рядовой А. Айбдиреймов в составе сборной МВД Узбекистана принимал участие в состязаниях «Дог биатлон», занял 2-е место в беге на дистанцию 3200 метров. Рядовые Р. Таумуратов, О. Муратбаев, А. Абдиреймов с питомцами приняли участие в соревнованиях, проходивших в Сурхандарьинской области, также заняли призовые места.

Азамат ПИРНИЯЗОВ,
соб. корр.



YOSHLAR HAFTALIGI

NAMANGAN VILOYATI. Haftalik doirasidagi tadbirlar IIB sohaviy tizimlarida xizmat qilayotgan yosh xodimlarning «Jasorat» muzeyiga sayohati bilan boshlandi.

Viloyat Mudofaa ishlari boshqarmasi hamda uning hududiy bo‘limlari bilan hamkorlikda viloyatdagi uyushmagan yoshlar ishtirokida tashkil etilgan uchrashuvlar ham yoshlarni bir maqsad yo‘lida birlashtirdi, desak, mubolag‘a emas. Xususan, Chortoq tumanidagi 40- va 48-umumta’lim maktablarida «Yangi O‘zbekiston armiyasi – mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri» shiori ostida o‘tkazilgan tadbirlar yuksak vatanparvarlik ruhida o‘tgani bilan yaqqol ajralib turdi. Bunday tadbirlar tuman va shahar IIBlari tomonidan otaliqqa olgan maktablarda ham uyushtirildi.

Viloyat IIB boshlig‘i, polkovnik Shuhrat Aliyev ishtirokidagi «Rahbar va yosh xodimlar uchrashuvi»da ham yosh xodimlarga yaratilgan imtiyozlar haqida so‘z yuritilib, ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanish, xizmatga bo‘lgan mas’uliyat, «Ustoz-shogird» an’anasi, xizmat intizomi va qonunchilikka rioya etish kabi ustuvor vazifalarni bekamko‘st bajarish yuzasidan tushunchalar berildi.

Shuningdek, tizimda namunali xizmat qilib kelayotgan 17 nafar yosh xodim turli mukofotlar bilan taqdirlandi.

Haftalik doirasida IIV Namangan akademik litsey o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkazilgan «Mohir operator» ko‘rik-tanlovi ishtirokchilarning kiberxavfsizlik yo‘nalishidagi bilimlarini mustahkamlashga xizmat qildi. Viloyat IIB huzuridagi Tergov boshqarmasining malakali xodimlari ishtirokidagi mahorat darslari ham litsey o‘quvchilarida katta taassurot qoldirdi. O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini namoyish etgan «Yoshlar kechasi»da esa yoshlar qo‘shiqchilik, she’rxonlik, aktyorlik bo‘yicha iqtidorini namoyish etdilar.





Gulchehra BUVAMIRZAYEVA, o‘z muxbirimiz.

SHUNAQASI HAM BO‘LADI

CHO‘LDA ADASHGANLAR

Mana, bir yil ortda qolib, yangi yilni ham boshlab oldik. O‘tgan yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi faoliyatiga nazar soladigan bo‘lsak, eslashga arzigulik bir nechta voqealar sodir bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Shunday voqealardan biri Mo‘ynoq tumanida ro‘y bergandi.

Ma’lumki, Mo‘ynoq tumani jo‘g‘rofiy joylashuvi, tarixiy va madaniy jihatdan diqqatga sazovor joylari bilan sayyohlar e’tiborini jalb qilib keladi. 2024-yilning aprel oyida Qo‘qon pedagogika instituti talabalaridan iborat 5 nafar yigit sayyohat qilish maqsadida «Nexia-1» avtomashinasida Mo‘ynoq tumaniga qarab yo‘l olgandi. Lekin ular ushbu safarining bir umr yodda qoladigan voqealardan biri bo‘lishini xayoliga ham keltirmagan bo‘lsa kerak.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV ning «102» qisqa raqamiga tashvishli qo‘ng‘iroq tushadi. Unda bir guruh sayyohlarning yo‘qolgani xabar qilingandi. Tergov-tezkor guruhi tomonidan sayyoh yigitlarni qidiruv ishlari boshlanadi. Tuman hududidagi videokameralar yozuvi o‘rganib chiqilganda, ularning Orol dengizining suv saqlanib qolgan qismiga qarab ketgani ma’lum bo‘ladi. Bu tuman markazidan 200 chaqirimdan ortiq masofadagi qumlik sahroni bosib o‘tish demakdir. Guruh qumlikning ancha joyigacha borgach, ortga qaytishga majbur bo‘lishadi. Chunki, bunday oraliqqa maxsus tayyorgarliksiz chiqqan kishilar uchun uni bosib o‘tish deyarli imkonsiz.

Bu orada mazkur tashvishli holat yuzasidan respublikadagi mutasaddi idoralarga xabar berilib, qidiruv ishlarini kengaytirilgan holda olib borish yuzasidan kelishib olindi. Qisqa vaqt mobaynida 15 ga yaqin qidiruv guruhlari tashkil etilib, ertasi kuni qidiruv ishlari yana boshlandi. Quvonarlisi, huquqni muhofaza qilish idoralari xodimlaridan tashqari, hududni yaxshi biladigan fuqarolar ham o‘z ixtiyori bilan yordam berish istagida guruhga qo‘shildi. Qidiruvga 20 ga yaqin maxsus texnikalar, vertolyot jalb etildi.

Oradan 4–5 soatlar o‘tganidan so‘nggina guruhlardan biri noma’lum avtomashina izi topilgani haqida xabar berdi. Yana yarim soatlardan so‘ng esa «Nexia» avtomashinasi, salon ichidan holsizlanib qolgan sayyoh yigitlardan biri topilgani haqida xabar keldi.

Avtomashinadan topilgan yigitning aytishicha, yarim yo‘lda mashina buzilib, sahroda qolib ketishgan. Bu orada olib chiqqan oziq-ovqat va suvlari ham tugab, ilojsizlikdan piyoda ketishga majbur bo‘lishgan. Ammo uning sog‘lig‘i yomonlashgani bois avtomashinada qoldirishibdi. Qolgan to‘rt yigit esa ikki guruhga bo‘lingan holda yordam izlab ikki tomonga yo‘lga chiqqan. Shu bilan oradan uch kun o‘tibdi.

Qidiruv guruhlariga yigitlar yo‘l olgan taraf ma’lum bo‘lgach, barcha guruhlar ushbu hududni sinchiklab tekshirishga jalb qilinadi. Va oradan yana 1–2 soat o‘tgach, to‘rttala yigit ham holdan toygan holda topiladi. Shunday qilib, ko‘pchilikning sa’y-harakatlari tufayli baxtsiz hodisaning oldi olinadi.

Shu o‘rinda bir muhim jihatni eslatib o‘tish o‘rinli bo‘lardi. Ya’ni, Orolbo‘yi hududlariga sayohat uchun boradigan bo‘lsangiz, albatta, o‘zingiz bilan yo‘l boshlovchi olishingiz kerak. Bundan tashqari, fasllardan kelib chiqqan holda har qanday iqlim sharoitiga oldindan hozirlik ko‘rish foydadan xoli emas. Sog‘ligingiz holatini bilish ham juda muhim. Unutmang, o‘zboshimchalik bilan ish tutishning yakuni fojiali bo‘lishi mumkin!

Azamat PIRNIYAZOV, o‘z muxbirimiz.
Qoraqalpog‘iston Respublikasi.

FAXRIYLAR – SO‘XDA



Viloyat IIB Faxriylar kengashi a’zolari So‘x tumanida bo‘lib, u yerda xizmat qilayotgan xodimlarning xizmat faoliyati bilan yaqindan tanishdilar.

Ular yangidan bunyod etilgan tezkor vazifalarni bajaruvchi safarbar otryadi va tuman IIB binosida yaratilgan shart-sharoitlarni ko‘zdan kechirishdi. Yosh xodimlar bilan muloqot qilib, ularga Vatanga muhabbat va kasbga sadoqat tushunchalari bo‘yicha maslahatlar berishdi.

– So‘nggi 2 yilda So‘x tumanida juda katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. Xodimlarning to‘laqonli xizmat qilishi uchun barcha sharoitlar muhayyo etildi. Bunga javoban ular yanada sidqidildan xizmat qilishlariga ishonamiz, – deydi viloyat IIB boshlig‘ining maslahatchisi, iste’fodagi polkovnik Ibrohim Ismoilov.

Abduvosit SIDIQOV, o‘z muxbirimiz.
Farg‘ona viloyati.



FAXR

KASBIMGA MEHRIM YANADA OSHDI



Ortga qolgan 2024-yil chin ma’noda yoshlar yili bo‘ldi, deyish mumkin. Ko‘plab tengdoshlarim qatori, men uchun ham ushbu yil g‘oyat omadli bo‘ldi.

O‘tgan yili yanvar oyida o‘tkazilgan «Eng namunali huquq-tartibot maskani» ko‘rik-tanlovining viloyat bosqichida «Eng yaxshi inspektor-psixolog» nominatsiyasi g‘olibi bo‘ldim. Fevral oyida esa Parkent tumani IIB JXX HPB xotin-qizlar masalalari bo‘yicha katta inspektori lavozimiga tayinlandim. Bu zimmamga yanada katta mas‘uliyatni yukladi. Shuningdek, iyul oyida «katta leytenant» maxsus unvoniga erishdim.

25-oktabr – Ichki ishlar organlari xodimlari kuni arafasida yana bir quvonchli voqea ro‘y berdi. Ichki ishlar vaziri maslahatchisi, general-polkovnik Zokirjon Almatov tomonidan ota-onamga xizmatda faollik ko‘rsatganim uchun minnatdorlik xati yuborildi. Minnatdorlik xatining ota-onamga shaxsiy tarkib oldida topshirilishi menga kelgusi faoliyatimda yanada yuksak marralarni ko‘zlab xizmat qilishga kuch-g‘ayrat bag‘ishladi. Kasbimga mehrim yanada oshdi. Bugun ishonch bilan ayta olamanki, men yurt tinchligi, oilalar xotirjamligi yo‘lida xizmat qilayotganimdan nihoyatda faxrlanaman.

Nodira MAHKAMBOYEVA,
Parkent tumani IIB JXX HPB xotin-qizlar masalalari bo‘yicha katta inspektori, katta leytenant.
Toshkent viloyati.

PSIXOLOGIYA XIZMATI

XODIM TUSHKUN KAYFIYATDA BO‘LSA...

Jazoni ijro etish muassasalarida xizmat qilishning o‘ziga yarasha murakkab tomonlari bor. Mabodo, ushbu tizim xodimlarida tushkunlik, depressiya holatlari kuchayib ketsa, ularning ish samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. IIV huzuridagi JIED Ikkinchi mintaqaviy muvofiqlashtirish markazida psixologik ta’minlash guruhi psixologlari doimiy ravishda shaxsiy tarkibning ruhiy holatini nazorat qilib borishadi, ularning oilaviy sharoitlarini o‘rganishadi. Ayniqsa, xodimlar bilan dildan suhbatlashib, kayfiyatlarini ko‘tarish choralarini ko‘rishadi.

Yakuniga yetgan 2024-yilda «xodimbay» ishlash uslubi asosida 615 nafar xodim psixodiagnostik tekshiruvdan o‘tkazildi. Shaxsiy tarkib o‘rtasidagi ijtimoiy-psixologik muhitni o‘rganish maqsadida anonim so‘rovnomalar tashkil etilib, xodimlar bilan psixokonsultativ suhbatlar olib borildi.

Bundan tashqari, xodimlarning ruhiy holatini yaxshilash maqsadida 20 marotaba psixologik trening mashg‘ulotlari o‘tkazildi. Shuningdek, 612 nafar xodimning psixologik portreti shakllantirildi. 55 nafar xodimning bevosita xonadoniga borib, oilaviy sharoitlari o‘rganildi.



Tajribadan yaxshi ma’lumki, ba’zida xodimlar stress holatida yoki tushkun kafiyatda bo‘lsa-da, istihola qilib buni rahbariyatga aytisholmaydi. Shu bois guruh psixologlari kundalik yo‘riqnomalarda har bir xodimga alohida e’tibor qaratib, ularning ruhiy holatini darrov payqab, zarur psixologik yordam ko‘rsatishmoqda. Buning samarasi o‘laroq, shaxsiy tarkib orasida ijtimoiy-psixologik muhit barqarorligi ishonchli ta’minlanib kelinyapti.

Faxriddin ASHUROV,
IIV huzuridagi JIED 2-Mintaqaviy muvofiqlashtirish markazining psixologik ta’minlash guruhi katta psixologi, mayor.
Abduvosit SIDIQOV,
o‘z muxbirimiz.
Farg‘ona viloyati.

VATAN HIMOYASI – MUQADDAS BURCH

YANGI MARRALAR SARI

Yurt himoyasi haqida gap ketganida, eng avvalo, ko‘z oldimizga ona Vatan tinchligi va osoyishtaligini asrab kelayotgan, kecha-yu kunduz uning sarhadlarida hushyor va sergak turgan harbiylar va ichki ishlar organlari xodimlari keladi.

IIV Qorovul qo‘shinlariga qarashli Namangan viloyatida joylashgan 7552-harbiy qism shaxsiy tarkibi ham zimmasidagi sharafli vazifalarni sidqidildan ado etib kelayotir. Qator yillardan buyon qo‘shinlar tizimida o‘tkazib kelinayotgan ko‘rik-tanlovlar va musobaqalarda mazkur harbiy jamoa vakillari faxrli o‘rinlarga munosib topilyapti. Bu esa shaxsiy tarkib o‘rtasida olib boriladigan jismoniy, jangovar va ma’naviy tayyorgarlik ishlari yuksak darajada ekanligining tasdig‘idir.



– 2024-yil ham jamoamiz uchun omadli keldi, – deydi harbiy qism komandiri, podpolkovnik G‘ayrat Bazarbayev. – Shaxsiy tarkib bilan namunali xizmat tashkil etganimiz o‘z samarasini berdi. Qorovul qo‘shinlari miqyosida «Amir Temur izdoshlari» shiori ostida o‘tkazilgan «Zakovat» intellektual o‘yinida hamda «Eng ilg‘or ta’qib qilish guruhi» ko‘rik-tanlovida faxrli 2-o‘rin sohibi bo‘ldik.

Ta’kidlash joizki, maktab o‘quvchilarini va uyushmagan yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida harbiy qismda «Ochiq eshiklar kuni» tadbirlari muntazam o‘tkazib kelinmoqda.

Harbiylarning bilim saviyasini oshirish maqsadida 2 ming 500 ta kitob fondiga ega bo‘lgan kutubxona faoliyat ko‘rsatib turibdi. Ushbu ziyo maskanida harbiy-siyosiy, qonunchilikka oid adabiyotlardan tashqari, o‘zbek va jahon adabiyoti durdonalarini ham topish mumkin.

Zamonaviy oshxona, dam olish xonalari, sport zali, mashg‘ulotlar xonalari shaxsiy tarkib ixtiyorida. Kerakli jihozlar bilan ta’minlangan dala o‘quv maydonida ham doimiy ravishda mashg‘ulotlar tashkil etib kelinmoqda.

Mard va jasur ona Vatanimiz himoyachilari yangi 2025-yilda bundanda, yuqori marralarni zabt etishga ahd qilishgan. Shu maqsadda astoydil izlanishmoqda.

Gulchehra BUVAMIRZAYEVA,
o‘z muxbirimiz.
Namangan viloyati.

MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT DARSI

MARD BOR JOYDA – CHEKINAR XATAR



So‘nggi yillarda mamlakatimizda jahon talablariga javob beradigan Qurolli Kuchlarni, barqaror va izchil taraqqiyotimizning ishonchli kafolati bo‘lgan milliy armiyamizni shakllantirish borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida milliy armiyamizning jangovar salohiyatini oshirish, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy qurol-aslahalar bilan ta’minlash, harbiy xizmatchilarning jismoniy, ma’naviy-intellektual tayyorgarligini oshirish, ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Milliy armiyamizni isloh qilish yo‘lida amalga oshirilgan sa’y-harakatlar zamirida, birinchi navbatda, zamonaviy mudofaa salohiyatiga ega bo‘lgan, mahorati yuksak, har qanday murakkab vaziyatda ham mukammal harakat qila oladigan armiyani shakllantirish, ikkinchidan, dunyo va mamlakatimiz harbiy yutuqlari, ilg‘or tajribalaridan unumli foydalanish, uchinchidan, harbiy xizmatchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash, ularning professional tayyorgarligini yanada kuchaytirish yotadi. Su maqsadda o‘tgan davrda mamlakat mudofaa salohiyatini yanada mustahkamlash borasida sohaning normativ-huquqiy asoslari takomillashtirildi. Mudofaa doktrinasi qabul qilindi. Qurolli Kuchlarning tashkiliy tuzilmasi, jangovar tarkibi va shayligi kuchaytirilib, yurtimiz mudofaa salohiyati mustahkamlandi. Bunda kontrakt asosidagi harbiy xizmatchilarning ulushi yil sayin o‘sib, qo‘shinlarning zamonaviy qurol-yarog‘lar bilan jihozlanish darajasi yanada oshirildi.

Zamonaviy tahdidlar kuchayib borayotgan bugungi kunda dunyoda ro‘y berayotgan gibrid xarakterdagi qurolli to‘qnashuvlar Qurolli Kuchlarimizning jangovar harakatlar jarayonida ilgari amalda qo‘llanilmagan qurollardan foydalanadigan kuchlarga qarshi kurasha olish qobiliyatini oshirishni taqozo etmoqda. Shu sababli, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida yurtimiz mudofaa qudratini yanada mustahkamlash va Qurolli Kuchlarimizni rivojlantirish eng muhim ustuvor vazifalardan biri etib belgilandi va bu borada ko‘plab amaliy ishlar olib borilmoqda.



Ayni paytda Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlash, mudofaa tizimini takomillashtirish, qo‘shni davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni har tomonlama rivojlantirish hozirgi davrning eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Chunki umumiy xatarlarga qarshi birgalikda kurashishni davrning o‘zi talab etmoqda.

Ta’kidlash joizki, mamlakatimiz Qurolli Kuchlari tizimida olib borilayotgan islohotlar jahon hamjamiyati tomonidan haqli ravishda e’tirof etilmoqda. Dunyo va MDH hamda boshqa xalqaro tashkilotlar doirasida o‘tkazilayotgan harbiy musobaqalarda O‘zbekiston Qurolli Kuchlari jamoalarining muntazam g‘alabalarga erishayotganligi mamlakat yetakchisi tomonidan belgilangan izchil islohotlarning ijobiy samarasidir.

Mudofaa vazirligi jamoasi 2024-yilda Buyuk Britaniyada bo‘lib o‘tgan «Kembriya patruli» musobaqasida ikkinchi o‘rinni qo‘lga kiritgan bo‘lsa, Janubiy Koreyada o‘tkazilgan ilmiy-harbiy tayyorgarlik bo‘yicha xalqaro musobaqalarning mutlaq g‘olibiga aylandi.

Qurolli Kuchlarimiz qo‘shni davlatlar bilan ham hamkorlikni mustahkamlamoqda. Jumladan, 2024-yilda Qozog‘istonda o‘tkazilgan «Birlestik – 2024» o‘quv mashg‘ulotlari doirasida yurtimiz harbiylari Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va tojikistonlik hamkasblari bilan birgalikda jangovar-taktik harakatlarda ishtirok etishdi.

Hindiston bilan hamkorlikda «Termiz» poligonida o‘tkazilgan «Do‘stlik – 2024» o‘quv mashg‘ulotlarining beshinchi bosqichida quruqlik va harbiy havo kuchlari mutaxassislari ishtirok etib, asosiy e’tibor terrorizmga qarshi kurashish va boshqa operatsiyalarda bo‘linmalar o‘rtasidagi muvofiqlik va jipslikni oshirishga qaratildi.

2024-yilda Yurtboshimiz boshchiligida jangovar shaylik va xizmat samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator qonunchilik o‘zgarishlari ham qabul qilindi.

Armiyamiz ayni paytda modernizatsiya asosida zamonaviy aloqa tizimlari, uchuvchisiz havo apparatlari, bronetexnika va razvedka vositalari bilan ta’minlanmoqda.

O‘zining boy va shonli tarixiga ega bo‘lgan IIV Qorovul qo‘shinlari ham mamlakatimiz osoyishtaligini ta’minlash yo‘lida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois qo‘shinlar tayyorgarligining intensivligi va sifatini kuchaytirish, shuningdek, harbiy qismlarning jangovar shayligini va boshqaruvini takomillashtirish, harbiy xizmatchilarning amaliy ko‘nikma va mahoratini oshirish maqsadida har yili qo‘mondonlik-shtab, taktik-maxsus va taktik-saf mashqlari hamda jangovar shaylik tekshiruvlari o‘tkazib kelinadi. Natijada ularning jangovar tayyorgarlik darajasi yanada oshirilib, yuklatilgan vazifalar o‘z muddatida to‘laligicha ado etilmoqda.



Harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida imtiyozli ravishda uzoq muddatli ipoteka kreditlari asosida uy-joylar bilan ta’minlanmoqda. Xizmat vazifasini fidoyilik bilan ado etib kelayotgan harbiylarning farzandlariga respublikamizdagi oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirishi uchun imtiyozli tavsiyanomalar berilyapti. Sog‘lig‘ini tiklash uchun sanatoriy va kurortlarda dam olib kelish istagida bo‘lgan harbiy xizmatchilar uchun ham imkoniyatlar yaratilmoqda. Hatto tinchligimiz himoyachilarining oilaviy sharoitini yanada yaxshilash va turmush o‘rtog‘ining bandligini ta’minlash maqsadida ular monomarkazlarda kasbga o‘qitilib, ishga joylashtirilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Qurolli Kuchlarimiz salohiyatini mustahkamlash, zamonaviylashtirish va isloh qilish yo‘lida amalga oshirilgan barcha sa’y-harakatlar mustaqilligimizni asrab-avaylash, sarhadlarimiz daxlsizligi, osmonimiz musaffoligi hamda el-yurtimiz osoyishtaligini ta’minlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Mixli SAFAROV,
o‘z muxbirimiz.

UCHINCHI SEKTORDA NIMA GAP?

YAXSHILIK BILAN EL KO‘KARAR

Insonlarning yoniq qalbi, mehnatkash qo‘llari tufayli bu yorug‘ olamda doim yaxshilik ko‘karadi. Bu xayrli amal ko‘pchilikning manfaati, farovon hayoti yo‘lida bo‘lsa, nur ustiga nur. Narpay tumanining 3-sektori hududidagi amaliy ishlar ham ana shunday ezgulikka yo‘g‘rilgan, desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.



Hududdagi 10 ta mahalla fuqarolar yig‘iniga qarashli mahallalarda mavjud 7466 xonadondagi 23119 ta oilada 36023 nafar aholi istiqomat qiladi. Tuman IIB boshlig‘i, podpolkovnik Alisher Rayimberdiyev rahbarligida hududda istiqomat qilayotgan nogironligi bo‘lgan, boquvchisini yo‘qotgan, yakka-yolg‘iz yashovchi fuqarolar va boshqa ehtiyojmand oilalar, ulardagi yoshlar va xotin-qizlarning ro‘yxati shakllantirilib, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash choralari ko‘rilayotir.

– Yil boshida «mahalla yettiligi», tadbirkorlar va aholi bilan uchrashib, «Bir mahalla – bir mahsulot» tamoyili asosida bitta mahallada bir turdagi serdaromad va eksportbop ekin turlari ekish bo‘yicha kelishib olingandi, – deydi sektor kotibi, tuman IIB JXX HPB IPG katta inspektori, podpolkovnik Vohidjon Xayriyev. – Yil yakuniga yetib, kutilgan natijaga erishganimizdan xursandmiz. Misol uchun, yil davomida birgina «Oqoltin» mahallasidagi mavjud 847 ta xonadonning 782 tasidagi 27 gektar issiqxonalarda pomidor va bodring yetishtirildi. Mahsulot sifati a’lo, dehqonlarimizning daromadi barakali bo‘ldi. Bundan tashqari, «Toshko‘prik», «Ko‘kota» va «Xo‘jaqo‘rg‘on» mahallalaridagi issiqxonalarda yetishtirilgan mahsulotlar mahalliy bozorlarimizga chiqarilmoqda.

Ma’lumot o‘rnida qayd etish joizki, hududning «Yoshlar daftari» elektron platformasiga kiritilgan yoshlarning ham 980 nafariga kerakli yordam ko‘rsatilgan. Xususan, 25 nafar yigit-qizning to‘lov-kontrakti, 10 nafariga kelajak kasblari uchun, 16 nafariga safarbarlik chaqiruvi rezervi uchun pul to‘lovlari amalga oshirib berilgan.





«Ayollar daftari»ga kiritilganlarning 598 nafariga amaliy yordam ko‘rsatilgan. Jumladan, 406 nafar ishsiz xotin-qizning bandligi ta’minlangan bo‘lsa, tadbirkorlik qilish istagida bo‘lgan ehtiyojmand ayollarning 59 nafariga kreditlar ajratildi. Boquvchisi bo‘lmagan ehtiyojmand xotin-qizlardan 47 nafariga esa moddiy yordam berildi.

Uchinchi sektor mas’ullari va tegishli hamkor tashkilot vakillarining bir yoqadan bosh chiqarib qilgan mehnati samarasi o‘laroq, hudud obodligi, aholi hayotining farovonligini yanada oshirish borasidagi chora-tadbirlar ham yaqqol ko‘zga tashlandi.

– Hududimizdagi Amir Temur nomli, «Tinchlik» va «Yangiobod» mahallalaridagi ichki yo‘llarga 1,6 km uzunlikda asfalt-beton qoplamasi va sektorga qarashli boshqa mahallalarga 6,2 km qumshag‘al aralashmasi yotqizish ishlari amalga oshirildi, – deydi podpolkovnik V. Xayriyev. – «Tinchlik» MFYdagi 59-sonli maktab davlat dasturi asosida qayta ta’mirlandi. Aholiga elektr energiyasini yetkazib berishda tez-tez uzilishlarning oldini olish maqsadida «Toshko‘prik», «Ko‘kota», «Bo‘ston» MFYlariga qo‘shimcha ravishda yangi transformatorlar o‘rnatildi. Tegishli dastur hamda hashar yo‘li orqali «Ko‘kota» MFYga 3,6 km yangi ichimlik suvi tarmog‘i tortilib, 72 ta xonadon toza ichimlik suvi bilan ta’minlandi.

Sirasini aytganda, o‘tgan yili hudud aholisining bir qator muammolari sayyor qabullar, yoshlar bilan uchrashuvlarda joyida hal etildi. Shuningdek, kelib tushgan murojaatlarning 97 foizi ijobiy hal qilingan va asosli tushuntirishlar berilgani quvonarlidir. Bu odamlarning yuziga mamnunlik, gap-so‘ziga minnatdorlik bo‘lib ko‘chgan.

Gulnoza TURG‘UNBOYEVA,
o‘z muxbirimiz.
Samarqand viloyati.

AMIR TEMUR O‘GITLARIDAN

■ Kurashib erishilmagan g‘alaba g‘alaba emas.

■ Chorasi yo‘q ishga kirishma, chunki undan qutulib bo‘lmaydi.

■ Qilichim o‘tkir bo‘lsa-da, o‘ylab qinidan chiqardim, shirin so‘z aytib, g‘animning imon topmog‘iga yo‘l ochdim.

■ Bir tayoqni sindirish mumkin, ko‘p tayoqni bukolmaysan ham.

■ Shijoatli kishilarni do‘st tut, chunki Tangri taolo jasur kishilarni ardoqlaydi.

■ Yaxshi odam yurt tuzar, yomon odam yurt buzar.

■ Yuz ming otliq askar qila olmagan ishni bir to‘g‘ri tadbir bilan amalga oshirish mumkin.

■ Kechira olishlik — mardlik, kechira bilmaslik nomardlik sanaladi.

■ Sodiq va vafodor do‘st ulkim, o‘z do‘stidan ranjimaydi, do‘stining dushmanini o‘z dushmani deb biladi. Agar kerak bo‘lsa, do‘sti uchun jonini ham ayamaydi.

■ Vahima — dushmanning yo‘ldoshi.

■ Yaxshilarga — yaxshilik qildim, yomonlarni esa o‘z yomonliklariga topshirdim. Kim menga do‘stlik qilgan bo‘lsa, do‘stligi qadrini unutmadim va unga muruvvat, ehson, izzatu ikrom ko‘rsatdim.

■ Chin do‘st uldirki, do‘stidan hech qachon ranjimaydi, agar ranjisa ham, uzrini qabul qiladi.

■ Garchi ishning qanday yakunlanishi taqdir pardasi ortida yashirin bo‘lsa ham, aqli raso va hushyor kishilardan kengashu tadbir istab, fikrlarini bilmoq lozimdir.



Урок духовности и просвещения

ТАМ, ГДЕ СМЕЛОСТЬ, ОТСТУПАЕТ ОПАСНОСТЬ

«Во всех успехах и достижениях на пути строительства Нового Узбекистана есть большой вклад наших Вооруженных Сил, тысяч военнослужащих, достойно исполняющих свой долг».

Шавкат МИРЗИЁЕВ.

14 января в Узбекистане отмечается День защитников Родины – храбрых воинов, продолжателей доблестных традиций великих предков – Джалолиддина Мангуберды, Амира Темура, Бабура Мирзо. В этот день мы еще глубже осознаем, что мирная жизнь народа, неприкосновенность границ, территориальная целостность республики – в крепких руках.

Армия независимого Узбекистана прошла славный путь. В результате масштабных реформ усовершенствована структура, пересмотрены задачи войск и силовых компонентов. Вооруженные Силы оснащены новейшими образцами военной и специальной техники. Это щит, надежно защищающий нашу Родину.

В структуре МВД Узбекистана функционируют Караульные войска, выполняющие ответственные функции по охране и обеспечению безопасности особых объектов, эффективному реагированию на угрозы, исходящие от деструктивных сил. Караульные войска отличаются высоким уровнем профессионализма, играют ключевую роль в укреплении суверенитета Узбекистана, защите интересов государства и общества.

Учитывая сложную геополитическую обстановку в мире, одним из направлений Стратегии «Узбекистан – 2030» определено дальнейшее повышение мощи Вооруженных Сил и обороноспособности страны. Сегодня в соответствии со Стратегией реализуются меры по повышению цифрового потенциала и обеспечению информационной безопасности Вооруженных Сил. Как говорил великий полководец Амир Темур, победу прежде всего определяют боевая подготовка и сила духа. В связи с этим в центре внимания развитие боеготовности войск на основе изучения стратегии и тактики современного боя. Совершенствуется система подготовки военных кадров. Реформирована Академия Вооруженных Сил, ставшая локомотивом военной науки в стране. Высокую эффективность показывает система подготовки офицеров Генерального штаба, аппаратов управлений округов, командиров бригад. Налажена регулярная подготовка военнослужащих в низовых звеньях. В частях и подразделениях проходят смотры «За боевое знамя Амира Темура», способствующие повышению выучки военнослужащих.







Представители Вооруженных Сил страны активно участвуют в престижных соревнованиях, в числе которых Международные армейские игры, «Кембрийский патруль», на которых завоевывают призовые места. Военнослужащие Минобороны, МВД, МЧС, СГБ, Национальной гвардии достигают высоких результатов в интенсивных испытаниях, отмечаются знаком отличия «Довюрак жангчи».

В целях стимулирования женщин-военнослужащих, сотрудниц министерств и ведомств, где предусмотрена военная служба, учрежден нагрудный знак «Тумарис». Им награждаются соотечественницы, вносящие весомый вклад в укрепление оборонной мощи страны и строительство Вооруженных Сил, проявляющие профессиональное мастерство, имеющие достижения в сфере спорта, культуры, науки, образования, общественной жизни.



Особое направление работы – военно-патриотическое воспитание молодежи. Детско-юношеское движение «Ватан таянчи» способствует формированию у юношей и девушек чувства ответственности, стойкости, осознанию подвига великих предков, стоявших на страже мира.

Сила нашей армии – в солидарности с народом. Укреплению такого единства служит созданная в стране система военно-административных секторов. Руководители органов власти всех звеньев принимают непосредственное участие в деятельности секторов, способствуя возведению военных городков, совершенствованию их инфраструктуры и др.

В центре внимания руководства страны вопросы социальной поддержки военнослужащих. Ежегодно тысячи семей военных обеспечиваются жильем, их дети получают льготы при поступлении в высшие образовательные учреждения. Жены военнослужащих обучаются востребованным профессиям и трудоустраиваются.

Единство армии и народа – фундамент прочного и стабильного государства, нашего общего благополучия, мирной и созидательной жизни.

Радик ТУМПАРОВ,
соб. корр.

UCHINCHI SEKTORDA

KAMBAG‘ALLIKDAN FAROVONLIK SARI

Muborak tumani 3-sektori hududida 7 ta mahalla fuqarolar yig‘ini mavjud. Ushbu mahallalarda o‘tgan yili 67 ta kam ta’minlangan oila ro‘yxatga olinib, tuman IIBga biriktirildi. Shunga ko‘ra, ehtiyojmand oilalarni qo‘llab-quvvatlash, ularga munosib turmush sharoitini yaratish maqsadida tizimli ishlar olib borilmoqda.



Ortda qolgan yilda sektor rahbariyati va ishchi guruhi kam ta’minlangan oilalar a’zolarini ish bilan ta’minlashga katta e’tibor qaratdi. Natijada dastlabki bosqichda 32 nafar kishi ish bilan ta’minlandi. Oilalar daromadi muqobillashgach, ular kam ta’minlanganlar ro‘yxatidan chiqarildi.

Ikkinchi bosqichda esa mutasaddi tashkilotlar bilan yaqin hamkorlikda faoliyat olib borilgani tufayli 29 nafar fuqaro ishga joylashtirildi. Ularning turmush tarzi o‘rganib chiqildi va maxsus komissiya tomonidan mazkur oilalar muqobil daromadga erishgani tasdiqlandi.

– «Yoshlar daftari»da ro‘yxatda turardim, – deydi «Sariq» mahalla fuqarolar yig‘inida yashovchi Jahongir Ergashev. – Tuman IIB rahbarlari uyimga kelib, shart-sharoitimni o‘rganishdi. Keyin chorvachilik uchun 20 million so‘mlik bank krediti ajratilishiga ko‘maklashishdi. Natijada o‘zimni band qildim. Buning uchun sektor mutasaddilaridan minnatdorman.

Hozirgi paytda sektor kesimida ro‘yxatga olingan kambag‘al oilalar soni 67 tani tashkil etadi. Ularni muqobil ish va daromad manbayi bilan ta’minlash maqsadida mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda tegishli choralar ko‘rilmoqda.



E’tiborlisi, bu jarayonda sektor hududida istiqomat qiluvchi 7074 nafar yigit-qiz ish joyi bilan ta’minlangandi. 88 nafar fuqaro esa jamoatchilik ishlariga jalb etildi.

Farrux NOMOZOV,
katta leytenant.
Qashqadaryo viloyati.

BIR TUMAN TARIXI

OSTI JAVHAR, USTI GAVHAR QO‘SHRABOT

Qo‘shrabot tumani Oqtov va Nurota tog‘ tizmalari orasida joylashgan bo‘lib, bu hudud O‘zbekiston xaritasida Orasoy tekisligi deb ataladi.

Tuman 1978-yil 3-aprelda Samarqand viloyati tarkibida, viloyatning Ishtixon va Payariq tumanlari hamda Navoiy viloyati Nurota tumanining ayrim xo‘jaliklari qo‘shilishi hisobidan tashkil etilgan. Buni tumanning Qo‘rg‘on qishlog‘ida yashab, baxshichilikda dovruq qozongan Ergash Jumanbulbulning «Rayonim Nurota tog‘lar orasi,



Otim Ergash Jumanbulbul bolasi» deb jo‘shib kuylagani ham tasdiqlaydi.

Ko‘pgina manbalarda hozirgi «Qo‘shrabot» MFY hududida joylashgan Eski Qo‘shrabot hamda ayni paytda tuman markazi hisoblangan Pichot qishloqlarida ikkita rabot bo‘lgani, shunga ko‘ra hudud Qo‘shrabot deb nomlangani aytiladi. Ushbu qo‘sh rabot qoldiqlari hozirgacha saqlanib qolingan.

Tuman uzoq o‘tmishga ega. Undagi Minishkor va Oqqo‘rg‘on qishloqlari hududida joylashgan g‘orlardan topilgan tosh qurollar ishlov berish texnikasiga ko‘ra so‘nggi paleolit (er. av. 40–12 ming yilliklarni o‘z ichiga oladi) davriga mansub. O‘tgan yili 1-avgustdan 13-sentabrgacha olib borilgan tadqiqotlarda esa «Yuqori Jo‘sh» MFY hududida Bekqo‘rg‘ontepa nomli qadimiy shahar bo‘lgani aniqlandi. Qazishmalar davomida ko‘plab arxeologik topilmalar, xususan, numizmatik materiallar (tanga pullar), sopol idish parchalari, temir va toshdan yasalgan uy-ro‘zg‘or buyumlari, ayollar taqinchoqlari, shisha buyum materiallari topilgan. Bu topilmalar Bekqo‘rg‘ontepaga ilk o‘rta asrlarda asos solinganidan, shaharda hayot XIX asr oxiriga qadar davom etganidan dalolat beradi.

Tumanda Zarmitan oltin-ruda koni mavjud bo‘lib, bu mamlakatimiz iqtisodiy rivojiga katta ulush qo‘shadi. Bepoyon dashtlarida dehqonlar g‘alla yetishtirsa, qir-adirlarida chorvadorlar qo‘y-qo‘zi boqadi. Tog‘larining musaffo havosi, soy va daralarida sharqirab oqayotgan zilol suvlar dam oluvchilarni allaqachon o‘ziga mahliyo etgan. Tog‘-toshlarida uchib yurgan qushlar – kaklik va to‘rg‘aylari sayrashidan dillar yayraydi. Shundan bo‘lsa kerak, tog‘ daralari orasida joylashgan Pangat qishlog‘iga borganlar bu maskanga «Pangat – jannat» deb ta’rif berishadi.

Ha, osti javharga, usti gavharga to‘la bu yurtning nomi Qo‘shrabot. Marhamat, bahor chog‘i borib ko‘ring Pangatni, xuddi ko‘rgandek bo‘lasiz jannatni.

Shuhrat RO‘ZIYEV,
o‘z muxbirimiz.

KECHA VA BUGUN





INSON QADRI ULUG‘

MEHR QUCHOG‘IDAN PANOH TOPGANLAR

Serjant Qahramon Xushvaqov Sirdaryo viloyati IIB Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazida tarbiyachi vazifasida ishlaydi. Atrofdagilar tomonidan unga yuksak hurmat ko‘rsatilishining muhim bir sababi bor. U o‘z xonadonida mehribonlik uyi ochib, bir necha bolani qaramog‘iga olgan.



Guliston shahridagi 2-mavzeda joylashgan shinamgina hovlida yashovchi Qahramon o‘n sakkiz yildan beri ichki ishlar organlarida faoliyat ko‘rsatadi. U xizmat qiladigan Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markaziga ko‘plab bolalar kelib-ketadi. Ba’zilarining ota-onasi vafot etgan. Ayrimlari ota-onasi tashlab ketgani yoki qamalgani sababli tirik yetimga aylangan. Qahramon oilada munosib tarbiya topgan inson bo‘lgani uchun qiyinchilik girdobida qolgan bolalarga e’tiborsiz bo‘lmadi. 2022-yil boshida Mehribonlik uyi tashkil etib, 6 nafar bolani o‘z qaramog‘iga oldi. Buning uchun hovlisida qo‘shimcha bino qurdi. Issiqlik tarmog‘i tortildi. Yuvinish xonalari zamonaviy shaklga keltirildi. Yotoqxonalarga mebellar olib kelindi. Bolalar o‘qishi, hordiq chiqarishi uchun hamma sharoit yaratildi. Mana, oradan ikki yil o‘tib, bolalarning 2 nafari voyaga yetdi. Xushvaqovlar oilasi mehr bulog‘idan bahramand bo‘lgan Flora va Shahnoza hozir 19 yoshda, Guliston davlat universitetining pedagogika va psixologiya fakultetida tahsil olyapti. Yaqinda Shahnoza oilali bo‘ldi. Qahramon uni orzu-havaslariga monand tarzda uzatdi. Floraxonimni ham so‘rab kelayotganlar bor. Lekin u universitetni tugatgach, turmush qurishni istayapti.

Qalb amri bilan tashkil etilgan mehribonlik uyida yana 6 nafar bola tarbiyalanyapti. Ulardan biri – Sardor ko‘p qiyinchiliklarni boshidan kechirgan. Uning onasi asli qozog‘istonlik. Eri vafot etgach, onasi uni olib Qozog‘istonga ketishga majbur bo‘ladi va afsuski, ko‘p o‘tmay u ham dunyodan ko‘z yumadi. Tog‘alarning qo‘lida sarson bo‘lib qolgan bola sal qolsa, ko‘chada qolardi. O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgani uchun davlatimiz g‘amxo‘rligida vataniga qaytariladi va Sirdaryo viloyati voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy ko‘mak ko‘rsatish markaziga joylashtiriladi. Markazda Qahramon Xushvaqovning e’tiboriga tushgan Sardor uning farzandlari safiga qo‘shiladi. U hozirda o‘n ikki yoshda. Uning maktabda o‘qib ketishi biroz qiyin bo‘ldi. Qozoq tilida tahsil olgani pand berdi. Lekin hozirda a’lochi o‘quvchi.

Tikish, bichish, gullardan o‘ziga xos kompozitsiya yaratishning ustasi bo‘lib yetishayotgan Sevara kelgusi yil o‘rta maktabni tugatadi. Uning ham otasi vafot etgan. Onasi esa uni tashlab xorijga ketib qolgan. Shu bois onalik huquqidan mahrum qilingan. Sevara ushbu mehribon oilaga kirib kelganida ancha tushkunlikka tushib, ruhan cho‘kib qolgandi. U bilan psixologlar, ko‘plab mas’ullar ish olib borishdi. Hozir oliy ta’lim muassasasiga kirishga tayyorgarlik ko‘rmoqda.

– Bilmadim, agar Qahramon dadam meni o‘z qaramog‘iga olmaganida taqdirim yana qanday davom etardi, – deydi Sevara biz bilan suhbatda. – Dunyoda yaxshi insonlar ham ko‘p ekaniga shu yerga kelib ishonch hosil qildim. Barchasi uchun ularga rahmat.

Tarbiyalanuvchilarning eng kenjasi Farruxjon sakkiz yoshda. Uning otasi qamoqda, onasi esa dunyodan o‘tgan. Hozir u ikkinchi sinfda o‘qiyapti.

– Men kelajakda IT yo‘nalishi bo‘yicha yetuk mutaxassis bo‘lmoqchiman, – deydi barchaning yoqimtoyi Farruxjon. – Har kuni kompyuter to‘garagiga qatnayman.

Qahramonning turmush o‘rtog‘i Nodira Xushvaqova bolalarning issiq-sovug‘i, vaqtida ovqatlanishi, yotish-turishiga mas’ul. Tabiatan mehribon bu ayolni bolalar «aya» deb chaqirganida u sevinib ketadi.

Mehribonlik uyining faoliyati Guliston shahar «Inson» ijtimoiy xizmatlar markazining doimiy nazoratida. Mas’ullar 6 nafar bolaning ta’minoti, turmush sharoiti, oiladagi ma’naviy muhitdan, iqtisodiy ahvoldan doim xabardor. Shu paytgacha oziq-ovqat, kiyim-kechakdan aslo muammo bo‘lmagan. Eng muhimi, ezgu niyat bilan tashkil etilgan mehr maskanida xush kayfiyat hukmron. Qalbi toza, niyati pok insonlar tomonidan tashkil etilgan mehr maskanida bundan boshqacha bo‘lishi ham mumkin emas.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o‘z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

YOSHLAR – KELAJAK BUNYODKORI

«QIYINCHILIKDAN QO‘RQMASLIKNI OTAMDAN O‘RGANDIM»

Termiz shahridagi xonadonlardan birida o‘g‘irlik sodir etildi. Pul, tilla taqinchoqlar va boshqa qimmatbaho buyumlar o‘g‘irlangan. Uy egalari mehmonda bo‘lgani sabab bundan biroz kech xabar topishdi va tezda ichki ishlar organiga murojaat qilishdi.



Tergov-tezkor guruhi voqea joyini ko‘zdan kechirganida hech qanday iz, dalil topilmadi. Holat yuzasidan qo‘zg‘atilgan jinoiy ish yosh tergovchi, leytenant Sherzod Mamarajabovga topshirildi.

Tergovchi ishni qo‘ni-qo‘shnilar, ko‘rgan-bilganlar bilan suhbatlashishdan boshladi. Xonadon atrofida, mahallada o‘ralashib yurgan notanish odamlarning yuz tuzilishi va boshqa belgilari haqida surishtirdi. Ana shu belgilar yordamida gumonlanuvchining fotoroboti yaratildi. Natijada fotorobotda aks etgan o‘xshash chehralar ekspert-kriminalistika guruhi bazasidan topilib, o‘g‘irlik sodir etgan kishining shaxsini aniqlashga muvaffaq bo‘lindi.

– Xavfli jinoyatchi Rossiyaga qochib ketayotganida, poytaxt aeroportida qo‘lga olindi, – deydi leytenant Sherzod Mamarajabov. – Jinoyatlarni tergov qilishda ba’zan kalavaning uchini topish biroz mushkul kecharkan. Murabbiyning va jinoyat qidiruv yo‘nalishida ko‘p yillar ishlagan otamning maslahatlari juda qo‘l kelyapti.

Denov tumani IIB huzuridagi Tergov bo‘limi tergovchisi, leytenant Sherzod Mamarajabov tashabbuskor xodimlardan. Uning otasi, Sariosiyo tumanidagi Sharg‘un shaharchasi IIB boshlig‘i, podpolkovnik Baxtiyor Rahmonqulov o‘g‘liga o‘zining ko‘p yillik amaliy ish tajribasini o‘rgatib, kasb sirlarini yetkazishdan charchamaydi.

– Sherzodbek kasbimni davom ettirayotgani ota sifatida menga g‘urur bag‘ishlaydi, – deydi podpolkovnik Baxtiyor Rahmonqulov. – Sohada o‘z o‘rnini topish uchun mendan, ustozlari hamda hamkasblaridan soha sir-asrorlarini o‘rganishdan erinmaydi. Kichik o‘g‘lim Shahzodbek esa IIV Surxondaryo akademik litseyida o‘qiyapti. Kelgusida u ham, ot izini toy bosar deganlaridek, egniga ichki ishlar organi xodimi kiyimini kiyib, mening va akasining yo‘lini davom ettiradi.

– Otam bizga qiyinchilikdan qo‘rqmaslikni o‘rgatgan, – deydi lavhamiz qahramoni. – Uning nasihatlari bilan og‘ir vaziyatlardan chiqib ketishni, oq-u qorani ajratishni o‘rganyapman. Bular menga xizmat faoliyatimda mas’uliyatli bo‘lishda, hayotiy ko‘nikmalarimni shakllantirishda yordam beradi.

Sherzodbek turk va ingliz tillarini o‘rganishga kirishgan. O‘z yo‘nalishida ilmiy ish qilish niyati ham yo‘q emas. Chunki kelajakdan umidi katta, maqsadi aniq. Biz umidli yosh tergovchi maqsadlari ortidan sobitqadamlik bilan borishini va xodimlar orasida shunday qat’iyatli yoshlar ko‘payishini istaymiz.

Feruza RAHMONQULOVA,
o‘z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

Неделя молодежи



РАСШИРЯЯ ЗНАНИЯ

В рамках Недели молодежи для сотрудников УВД Сырдарьинской области было организовано посещение Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан, Правоохранительной академии, где они встретились с ведущими учеными-юристами. Участники мероприятия углубили знания в сфере управления, судебно-правовой системы.

Кроме того, состоялось посещение Агентства кинематографии Узбекистана. Сотрудники расширили знания о тонкостях кинематографического искусства, его влиянии на общественное сознание.

Соб. корр.

Сырдарьинская область.



КЛЮЧ К УСПЕХУ



В Академии МВД Узбекистана состоялось духовно-просветительское мероприятие под девизом «Сила – в знаниях», собравшее именитых гостей, преподавателей и курсантов. В центре внимания – роль образования в формировании личности и достижении профессиональных высот.

К участникам обратилась доктор философских наук, профессор Жамила Шермухамедова, подчеркнув важность непрерывного образования в современном мире. Лауреат премии имени Зульфии Ширин Абдуллаева отметила, что в нашей стране созданы все условия для реализации молодежью инициатив. Гарантией тому – положения Основного закона.

«Успех приходит к тем, кто неустанно трудится, осваивает знания, осознавая ценность времени», – отметил в своем выступлении старший инспектор Организационного департамента МВД, лауреат премии «Илхом» лейтенант Жавохир Бафоев.

Соб. корр.



Андижанская область

ПАТРУЛЬНЫЕ ВСЕГДА НАЧЕКУ

Личным составом батальона ППС Управления охраны общественного порядка службы общественной безопасности УВД области по «горячим следам» раскрыто немало краж, фактов незаконного оборота наркотиков, разбойных нападений и других преступлений, задержаны лица, находившиеся в розыске.



На снимке: *патруль в составе рядовых командира отделения Акрамжона Махмудова (слева) и Мансурбека Назарова.*

Пеший наряд ППС в составе рядовых Дилшода Обиджонова и Шерзода Позилова совершал обход вверенной территории. Внимание стражей порядка привлек молодой человек, который, заметив блюстителей порядка, постарался затеряться в толпе. Но бдительные сотрудники задержали подозрительного парня, которым оказался житель областного центра тридцатилетний А. Шукрулло.

В ходе личного досмотра в присутствии понятых стала понятна причина его прыткости. В кармане брюк была обнаружена свернутая купюра, в которой находилось вещество, похожее на наркотик. Экспертиза подтвердила подозрение патрульных. Это была готовая к употреблению марихуана весом 1,32 грамма.

Патрульно-постовая служба технически модернизируется. Наряды ППС обеспечены служебными планшетами. Кроме того, идет разработка универсальной информационно-справочной базы, объединяющей все необходимые для выполнения служебных обязанностей сведения, что позволит оперативно решать поставленные перед сотрудниками задачи.

Борис КЛЕЙМАН,
соб. корр.

Ферганская область

ЁРДОН МАНИТ ПРИРОДОЙ



Немного найдется тех, кто не слышал о живописном поселке Ёрдон Ферганского района, окруженном со всех сторон горами. Приезжих чаруют журчание рек Оксув и Куксув, чистый воздух, источаемый хвойными деревьями.

Поселок, расположенный среди Памиро-Алайских горных хребтов, находится на высоте 1 500 метров над уровнем моря. Здесь активно развивается туризм, в основном связанный с паломничеством и отдыхом.

В Ёрдоне происходят значительные изменения. Исходя из природных возможностей, особое внимание уделяется дальнейшему развитию животноводства, предпринимательства. Действуют более 60 гостевых и свыше 30 дачных домов, их количество продолжает расти. В местах отдыха созданы комфортные условия, чтобы гости могли приятно провести время.

– В сходе граждан махалли «Ёрдон» проживают более 3000 человек. Ежедневно приезжают и уезжают сотни туристов, – рассказывает инспектор профилактики старший лейтенант Хосилжон Кузибоев. – Благодаря профилактическим мерам, предпринимаемым в сотрудничестве с активистами махалли, обеспечивается спокойствие и правопорядок.

После укрепления дружественных связей и добрососедских отношений с Кыргызстаном, пограничные посты открыты, поток туристов в Ёрдон и примыкающий к нему Шахимардан заметно увеличился.

Абдувосит СИДИКОВ,
соб. корр.

2025 год – Год охраны окружающей среды и «зеленой» экономики

ШАГ К ЭКОЛОГИЧЕСКИ ОТВЕТСТВЕННОМУ ОБЩЕСТВУ

Узбекистан сделал значительный шаг в области «зеленой» экономики. Внедрение альтернативных источников энергии, таких как солнечные и ветровые электростанции, реализация проектов по улучшению качества воздуха и воды, инициативы по сокращению выбросов углекислого газа – в числе приоритетов государственной политики. Однако перед нами стоят серьезные задачи: устойчивое управление природными ресурсами, снижение уровня загрязнения воздуха, повышение экологической культуры населения.



Охрана окружающей среды и переход к «зеленой» экономике стали неотъемлемой частью современного мирового дискурса. Угрозы изменения климата, рост экологических рисков требуют комплексных и оперативных мер.

«Зеленая» экономика – это модель, направленная на снижение углеродного следа, рациональное использование природных ресурсов. В отличие от традиционной экономики, ориентированной на максимизацию прибыли без учета экологических последствий, «зеленая» экономика предлагает сбалансированный подход. Как заявил Президент Шавкат Мирзиёев, «использование надежных, безопасных, экономически эффективных и экологически чистых источников энергии – один из главных приоритетов масштабных реформ, проводимых в Новом Узбекистане».

Успех «зеленой» экономики зависит и от участия каждого человека. Ответственное отношение к природе начинается с осознанного выбора: использование многоразовых вещей, отказ от одноразового пластика, снижение потребления электроэнергии. Маленькие шаги миллионов людей могут привести к глобальным изменениям.

Люди должны понимать, какие последствия имеет их деятельность для будущего. Речь идет не только о взрослой аудитории, но и о воспитании экологической культуры у детей, что формирует ответственное поколение. В этом плане особое значение приобретает реализация совместно с ЮНЕСКО программы «Зеленое образование».

Также не стоит забывать о роли бизнеса. Сегодня крупные компании все чаще ориентируются на экологические стандарты. Внедрение «зеленых» сертификатов, корпоративных экологических программ становится маркером современного успеха.

Обеспечение экологической безопасности и контроль за соблюдением природоохранного законодательства являются важными составляющими работы ОВД. Примером для подражания служат действия сотрудников, которые борются с экологическими правонарушителями. Их работа доказывает, что каждый может внести свой вклад в сохранение природы и улучшение условий жизни.

2025 год – возможность объединить усилия граждан и государства для формирования экологически ответственного общества.

Азиза БОХОДИРОВА,
капитан.

ТАРИХНИНГ ЎҚИЛМАГАН САҲИФАЛАРИ

МАДАМИНБЕКНИНГ БОТИНИ ВА ЗОҲИРИ



Тарих – ҳақиқатлар китоби. Бироқ у ким томонидан ва ким ҳақда ёзилганига қараб, ҳар хил бўлиши мумкин. Масалан, дунёдан кўз юмганига юз йилдан ошган бўлса-да, Мадаминбекнинг аслида ким эканлиги ҳақидаги саволлар ҳали-ҳамон афкор омма онгида айланиб юрибди. Чунки халқ уни «катта оғалар»нинг кўрсатмасига кўра «Ўзбекфильм» томонидан суратга олинган эски кинокартинадаги «босмачи» тимсолида кўрган…

Хўш, унда Мадаминбек ўзи ким бўлган? Ҳақиқатан ҳам, юрт истиқлоли учун курашган ватанпарвар қаҳрамонми ёки…

ҚАҲРАМОННИНГ ТУҒИЛИШИ

Мадаминбек Аҳмадбек ўғлининг асл исми Муҳаммад Аминбек бўлиб, у 1892 йилда Марғилон атрофида – ҳозирги Тошлоқ тумани «Садда» қишлоқ фуқаролар йиғини ҳудудидаги Сўкчилик қишлоғида ўртаҳол ҳунарманд оиласида таваллуд топган. Маърифатли оилада вояга етган Муҳаммад Аминбек исмига монанд тўғрисўзли, садоқатли, сермулоҳаза, имон-эътиқодда собит, диёнатли йигит бўлган.

Унинг умр дафтарининг илк варақларидаги битиклар Россия империяси томонидан босиб олинган ва оғир мустамлакачилик зулми остида яшаётган Туркистон халқлари тақдири билан бир хил эди. Бинобарин, Биринчи жаҳон уруши арафасида мустамлакачиларга қарши кўтарилган турли исёнлардаги фаол иштироки учун қамоққа олинади. 1914 йилда бўлиб ўтган суд унинг истибдод ва зулмга қарши курашини сохталаштириб, Сибирга 14 йилга сургун қилади. Бу унга оид тарихий ҳақиқатларни сохталаштиришнинг дебочаси эди.

Шуниси қизиқки, Россия империяси ўзига қарши қўзғолган Мадаминбекни ўзи қилмаган қилмишлар, яъни қотиллик ва ўғрилик жиноятларида айблаган бўлса, империяга барҳам берган 1917 йил Февраль инқилоби уни сиёсий маҳбус сифатида озод қилди. Бундан ҳам ажабланарлиси, қотил ва ўғри сифатида айбланган Мадаминбекни «Шўрои Уламо» жамиятининг раҳбарлари Марғилон шаҳар миршаббошиси лавозимига тавсия этишган бўлса, Туркистонда большевиклар ҳокимиятни зўравонлик билан эгаллаб олгач, Фарғона вилояти ҳарбий комиссари К. Осипов уни Марғилон милицияси бошлиғи этиб тайинлайди ва тегишли қурол-яроғ билан таъминлайди.

Бироқ советларнинг субутсиз сиёсати Мадаминбекни озодлик учун курашга отлантиради. 1918 йил март ойининг бошларида ўз милиционерлари билан биргаликда истиқлолчилар сафига ўтган Мадаминбекнинг қўл остида 1919 йил январида 16 000 кишидан иборат армия бўлган. Шу йил охирига бориб, уларнинг сони 25 000 дан ошган. У қурдирган ўрдада бутун Фарғона водийсидан келган ўн минглаб йигитлар қиличбозлик машқини, милтиқ, пулемёт ва замбараклардан отишни ўрганишган. Унинг қўшини сафида 90 нафар рус офицери бўлиб, улар ҳарб илмидан сабоқ берган. Мадаминбек штабида 40 нафардан ортиқ рус офицери, қўшини таркибида эса турк, озарбайжон ва афғон зобитлари ҳам бўлган.

Шуниси эътиборлики, унинг қароргоҳида ўқ-дори ва снарядлар ишлаб чиқариладиган, милтиқлар ясалади-ган, замбарак ва тўплар қуйиладиган қатор корхона ва заводлар бўлган. Бундай ҳарбий устахоналар Наманган атрофидаги Учтепа қалъаси, Чорвоқ қишлоғи ва Андижон уездидаги Қўқонқишлоқда ҳам қурдирилган.

«ФУЗУЛИЙ ЯХШИ КИТОБ»

Бу жумлани ўқибоқ, хаёлингизда «Ўткан кунлар» воқеалари гавдаланган бўлса, ажаб эмас. Зеро, Мадаминбек ҳам, Қодирий қаҳрамони Отабек каби насл-насаби жиҳатидан қадимги беклардан бўлган. Бироқ бир пайтлар Қўқон хонлигида турли лавозимларда ишлаган ва мавқеи анча баланд бўлган Мадаминбекнинг ота-боболари ўртаҳол ҳунарманд даражасига тушиб қолган. Хусусан, XX аср бошларида Мадаминбекнинг отаси Аҳмадбекнинг Марғилонда катта дўкони бўлган. Онаси эса ўз даврининг оқила аёлларидан бири бўлиб, ўз ҳовлисида мактаб очган ва отинойи сифатида ёш қизларни ўқитган.

Ана шундай маърифатли инсонлар оиласида дунёга келган Мадаминбек Марғилондаги мактаб ва маҳаллий мадрасани тугатган. Таҳсилни Бухорои шарифда давом эттиришни дилига туккан йигитни тақдир миллий озодлик курашининг тўс-тўполонлари ичига ташлади. Бироқ исломий илмларни пухта эгаллаган Мадаминбек китоб мутолаасини канда қилмаган. Қаергa бормасин, ёнида доим муқаддас Қуръони карим ва машҳур озарбайжон шоири Фузулий девонини ўзи билан олиб юрган.

Бундан ташқари, Туркистоннинг буюк истиқлол шоири Чўлпон шеърларини севиб ўқиган. У иштирок этган гурунгларда кўпинча суҳбат мавзуси шеъриятга бориб уланган. Мадаминбек ўз она тили – ўзбек тилидан ташқари, тожик, рус ва француз тилларини ҳам яхши билган.

ХИЁНАТ КЎЧАСИДАГИ ҚОТИЛЛИК

1918 йил кузидан бошлаб Марғилон ва Андижонда сафарли юришларини амалга оширган Мадаминбек йил охирига келиб, Фарғона водийсидаги истиқлолчилик ҳаракатига умумий раҳбарлик қилади ва Наманган, Фарғона, Чустда советларга мардонавор қаршилик кўрсатади. Бироқ Катта Эргаш ва унинг таъсирида бўлган бошқа йирик қўрбошилар, хусусан, Холхўжа Эшон унга бўйсунишдан бош тортади. Натижада Фарғона водийсидаги истиқлолчилик ҳаракати иккига бўлиниб кетади.

1919 йил октябрь ойининг сўнгги кунларида Андижон уездидаги Ойимқишлоқда бўлиб ўтган истиқлолчилар ҳаракатининг учинчи қурултойида Мадаминбекнинг Олий бош қўмондон ва ҳукумат раҳбари этиб сайланиши дарз кетган муносабатларни янада чигаллаштиради. Айниқса, Мадаминбекнинг совет ҳокимиятига таслим бўлиши кечаги сафдошлари ва маслакдошларини ўзига ғоявий мухолиф ва ашаддий рақибга айлантиради.

Хуллас, 1920 йил 14 майда совет қўмондонлиги томонидан музокаралар ўтказиш учун қўрбошилар ҳузурига юборилган Мадаминбек Учқўрғон шаҳри яқинидаги Қоровул қишлоғида собиқ сафдошлари қўли билан хиёнаткорона ўлдирилган. Бор-йўғи 28 баҳорни кўрган Мадаминбекнинг қабри Олой воҳасидаги Шиғай қишлоғида жойлашган бўлиб, бу манзил ўзбек, қирғиз ва бошқа туркий халқларнинг зиёратгоҳига айланган.

«ФАРҒОНАЖОН – БОТИРЛАР ТУҚҚАН ОНАЖОН»

Мадаминбек фожиали равишда ҳалок бўлганидан буён орадан бир асрдан мўлроқ вақт ўтди. Лекин ҳали-ҳамон у тириклигида ҳам, дорилбақога рихлат қилганидан кейин ҳам тўқилган қўшиқлар, шеърлар, латифаю ривоятлар халқ тилида ва дилида яшаб келяпти. Айниқса, жадид бобомиз Мунавварқори Абдурашидхонов назаридан ўтган ва сайқал топган «Фарғонажон» қўшиғи бутун Туркистон истиқлолчилари орасида жуда машҳур бўлган.

Навжувонлигида нобуд қилинган таниқли ҳарбий саркарда ва қўмондон бўлган Мадаминбекнинг порлоқ номи шўролар даврида «босмачи» сифатида ноҳақ қораланди ва унинг истиқлолчилик ҳаракати сохталаштирилди. Шукрки, юртимиз мустақил бўлгач, ҳақ қарор топиб, унинг номи оқланди.

1993 йилда ёзувчи ва журналист Алишер Ибодинов «Қўрбоши Мадаминбек» ҳужжатли қиссасини ўқувчилар ҳукмига ҳавола этди. Ўзбекистон халқ рассоми Малик Набиев 1999 йилда «Мадаминбек» портретини яратди. 2011 йилда тарихчи олим Қаҳрамон Ражабов «Мадаминбек» тарихий рисоласини, наманганлик ижодкор Бахтиёр Абдуғафур эса 2018 йилда «Қонли гуллар водийси: Мадаминбек» тарихий романини чоп этди. Бугунги кунда ҳам Мадаминбекнинг серқирра фаолияти тўғрисида нафақат Ўзбекистонда, балки Италия, Германия, Туркия, Саудия Арабистон ва бошқа қатор хориж давлатларида илмий изланишлар олиб борилмоқда.

Темир ҚУРБОН.

ILM ORQALI YUKSALGAN YURT



Dunyoda qadim va boy tarixga, o‘ziga xos madaniyatga ega, zamonaviy ilm-fan rivojiga ulkan hissa qo‘shayotgan mamlakatlar juda ko‘p. Ulardan biri kunchiqar yurt Yaponiyadir.

Ma’lumot: Yaponiya Osiyo qit’asining eng sharqiy qismida joylashgan. Mamlakat Tinch okeanining shimoli-g‘arbiy qismida, g‘arbda Yapon dengizi, shimolda Sharqiy Xitoy dengizi va Filippin dengizlari qurshovidagi davlat. Uning hududi 14125 ta oroldan iborat. Ular orasida 5 tasi asosiy orol bo‘lib, ular: Xokkaydo, Xonsyu, Sikoku, Kyushuva hamda Okinava orollaridir. Maydoni 377,8 ming kv km. Aholisi 126 million kishini tashkil etadi. Poytaxti – Tokio shahri. Yaponiya ma’muriy jihatdan 47 prefekturaga bo‘linadi. Davlat tuzumi — konstitutsiyaviy monarxiya. 2023-yil holatiga ko‘ra, mamlakat yalpi ichki mahsulot bo‘yicha dunyoda to‘rtinchi o‘rinni egalladi. 2024-yil uchun Global innovatsiyalar indeksi reytingida 13-o‘rinni saqlab qoldi.

«Kunchiqar mamlakat»

Yaponlar o‘z vatanini «Nippon» yoki «Nihon», ya’ni «Quyosh chiqishi», «Kunchiqar mamlakat» deya atashadi. Yaponiyaning Yevropa tillaridagi «Japan» nomiga kelsak, ilk bor bu nomni malayziyalik va indoneziyalik xalqlar janubiy xitoyliklar tilidan o‘zlashtirgan bo‘lib, 16-asrda portugaliyalik savdogarlar Yaponiyaning malaycha nomini Malakka shahrida bilishgan. Portugal savdogarlari ushbu xalq haqida o‘z bitiklarida yozib qoldirishgan. Ingliz tilida ilk bor 1577-yilda nashr qilingan kitobda «Giapan» nomi ostida uchraydi. Yaponiya – bu ruscha talaffuzi.

Yaponiya o‘rtacha umr ko‘rish ko‘rsatkichi bo‘yicha dunyoda yetakchidir. Ammo mamlakatda tug‘ilish ko‘rsatkichining tushib ketayotgani muammoli vaziyat bo‘lib qolmoqda.

Yaponiya Tinch okeani orollarida joylashgani sabab, tez-tez zilzilalar va to‘fonlar yuz berib turadi. Shuning uchun orollar aholisi doimo ehtiyot bo‘lishga va kamtarona hayotdan mamnun yashashga odatlangan, shunda tabiiy ofatlardan keyin uyini tezda qayta tiklashi mumkin.

Yaponlar qanday yuksaldi?

Ikkinchi jahon urushidan keyin yaponlar ta’limga kuch berishdi. Yaponiyada dastlab olti yillik majburiy ta’lim, so‘ngra besh yillik o‘rta ta’lim, so‘ngra uch yillik oliy ta’lim yo‘lga qo‘yildi. Yapon o‘qituvchilari talabalarga chin yurakdan dars berardi. O‘qituvchi shunchaki dars o‘tib bermasdi, balki talaba darsni puxta o‘zlashtirishini o‘zining vazifasi, deb bilardi.

Yaponlar 19-asrdan beri yuksak texnologiya ixtirolariga intilib keladi. Bugungi kunda dunyo bozorida yapon texnologiyasining qanday mavqega egaligi hech kimga sir emas.

O‘rganish eng qiyin til

Bugungi kunda yapon tili o‘rganish eng qiyin til hisoblanadi. U qadimgi Xitoy iyerogliflaridan shakllangan til va yozuvdir. Shuning uchun mahalliy aholi yapon tilini biladigan chet elliklarni juda hurmat qiladi.

Yaponlarning savodxonlik darajasi dunyodagi eng yuqori ko‘rsatkich bo‘lib, deyarli 100 foizni tashkil etadi.

O‘ziga xos madaniyat

Yaponlar juda hurmat va e’tibor bilan salomlashishadi. Uning farqi va usullari mavjud. Kundalik salomlashish bo‘lsa, 15 daraja, biroz rasmiy salomlashishda 30 daraja ta’zim qilinadi. Kimgadir minnatdorlik bildirilganda esa 45 gradusga egilish lozim bo‘ladi.

Navbatda turish

Qayerda bo‘lishingizdan qat’i nazar, poyezdga chiqish, lift kutish yoki supermarketda xarid qilish



kabi har qanday holatda, navbat madaniyatini jiddiy joriy etishingiz shart. Biroq bu navbat tamoyilini qo‘llaganingizda, siz ham biroz nozik bo‘lishingiz kerak, ayniqsa, jamoat transportiga chiqish va tushishda, navbatda turishdan oldin yo‘lovchilar tushishi uchun chetroqda turishingiz zarur.

Issiq yo‘laklar

Yaponiyada shunday shaharlar borki, qish paytlarida sovuq tushib, qalin qor yog‘adi. Bunda ko‘chalardagi yo‘lkalar isitiladi, biroq shaharda istiqomat qiluvchilarning uylari



isitilmaydi. Natijada mazkur shaharda yashovchi har bir inson o‘z uyini o‘zi isitishga majbur bo‘ladi.

Yaponcha tozalik siri

Sayyohlar Tokio yoki Osaka kabi yirik shaharlarda ham, qishloq joylarida ham ko‘chalarning tozaligidan hayratda qolishadi.

Gap shundaki, yaponlar bolalikdan tozalikni saqlashga odatlangan. Boshlang‘ich maktabdan to o‘rta maktabgacha bo‘lgan 12 yillik maktab davomida tozalash kundalik dars jadvalining bir qismidir. O‘quv dasturiga tozalashni kiritish bolalarda mas’uliyat va tozalikni rivojlantirishga yordam beradi.

Ko‘chada yemang va ichmang

Yaponlar ko‘chada sayr qilganda ovqatlanishmaydi. Jamoat transportida ovqatlansangiz, siz madaniyatsiz hisoblanasiz. Biroq bu uzoq masofali poyezdlar uchun istisnodir.

Bir qo‘l bilan narsalarni bermang va olmang



Har qanday buyumni, hatto eng kichigini ham, ikkala qo‘l bilan berish va qabul qilish kerak, bu sizning xushmuomalaligingizni ko‘rsatadi. Kafe yoki restoranda to‘lovni amalga oshirayotganda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri kassirga naqd pul bermasligingiz, aksincha pulni peshtaxta yonidagi kichik patnisga qo‘yishingiz lozim.

Yapon gilosi yoki sakurasi

U Yaponiyaning milliy guli hisoblanadi. Yaponiyada sakura gullarini ko‘rish an’anasi «hanami» deb ataladi. Hanami odatda qisqa vaqt, bir haftadan ko‘proq davom etadi. Ume (yapon olxo‘risi) birinchi bo‘lib gullaydi, undan keyin sakura o‘zining chiroyli pushti barglarini ko‘rsata boshlaydi. Taxminlarga ko‘ra, Tokioda ushbu noyob o‘simlikning gullashi 23-martdan boshlanib, may oyi boshlarigacha davom etadi.

Madina QAHHOROVA tayyorladi.

O‘QISHNI TAVSIYA ETAMAN

QALBLARNI UYG‘OTUVCHI ASAR

Aksariyat kitobxonlar ko‘proq nasriy yo‘nalishda yozilgan asarlarni tahlil etishadi. Ma’no yuki jihatidan har qanday nasriy asar bilan bellasha oladigan she’riy dostonlar haqida ham ijobiy fikr bildirish mumkin.



Xalq qalbidan o‘rin olgan nazmiy asarlar orasida el sevgan shoir Muhammad Yusufning «Qora quyosh» she’riy dostoni alohida o‘rin tutadi. Qatag‘on qurbonlari xotirasiga bag‘ishlangan mazkur doston shoirning o‘z ko‘z yoshlarsiz o‘qiy olmaysiz. Bugungi dorilamon kunlar osonlikcha qo‘lga kiritilmagani, yurtning ne-ne asil o‘g‘lonlarining aziz joni qurbon bo‘lganini his qilasiz.

Dostonda «xalqlar otasi»ning ijobiy va salbiy sifatlari



Vataniga cheksiz mehr-muhabbati ifodasi, millat va davr fojiasiga nisbatan yuksak shoirlik munosabatidir. Asarda Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Usmon Nosir singari ulug‘ ziyolilarimizning ichki kechinmalari, millat va xalq dardida yongan hasratlari ifodalangan.

Muhammad Yusufning ushbu asarida 1937–1938-yillarda yovuzlik mashinasi bo‘lgan qatag‘on siyosatining xalq taqdirida aks etgan fojialari iztirobli tasvirlangan. Binobarin, tarixning qonli sahifalarini mohirlik bilan bayon etiladiki, yarim xalq qarg‘agan, yarim xalq alqagan «dohiy» qora quyoshga mengzaladi. She’riy dostonning «Qora quyosh» deb nomlanishi ham shundan.

Xalq ongi va tafakkurini uyg‘otishga bag‘ishlangan bunday asarlarni o‘qish yana shunday davrlar qaytib kelmasligi uchun ham muhimdir.

Boburmirzo HAYDARALIYEV,
Pop tumani IIB JXX HPB profilaktika inspektori, leytenant.



SARHISOB

NATIJALAR KO‘NGILDAGIDEK

Ichki ishlar organlarida xizmat qilayotgan xotin-qizlarni sportga keng jalb etish, salomatligini yaxshilash, shuningdek, ular o‘rtasida jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish maqsadida doimiy ravishda turli sport musobaqalari o‘tkazib kelinmoqda.



Yakuniga yetgan yilda xodimalarimiz bir qator ijobiy natijalarga erishishdi. Ayniqsa, sport yo‘nalishida, ko‘rik-tanlovlar borasida yutuqlarimiz bisyor. Xususan, 2024-yil 14-yanvar kuni Toshkent shahrida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va huquqni muhofaza qilish organlarida xizmat olib borayotgan xotin-qizlar o‘rtasida o‘tkazilgan yugurish musobaqasida ishtirok etgan serjantlar A. Latipova va M. Bahronova 3 ta medal sohibi bo‘ldi. 15–16-fevral kunlari Sirdaryo viloyatida stol tennisi bo‘yicha o‘tkazilgan «Ichki ishlar vaziri kubogi» musobaqasida terma jamoamiz vakillari – kapitan N. Nekboyev hamda katta leytenant M.Raximova juftlik bahslarida faxrli ikkinchi, umumjamoa hisobida uchinchi o‘rinni egallashdi.



Shuningdek, oilalarni mustahkamlash, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy faolligini yanada oshirish, ijodiy-intellektual salohiyatini namoyon etish maqsadida 27–29-fevral kunlari Buxoro shahrida «Ayollari e’zozlangan yurt» shiori ostida bo‘lib o‘tgan ichki ishlar organlari xotin-qizlarining III Respublika forumida mezbonlik qilgan ayol xodimalar ham yuqori o‘rinlarni band qilishdi. Xususan, «Fidoyi ayol xodima» ko‘rik-tanlovida katta leytenant D. Vohidova birinchi o‘rinni, «Eng yaxshi kitobxon xodima» tanlovida esa katta leytenant G. Po‘lotova uchinchi o‘rinni egalladi. «Zakovat» intellektual o‘yinida ham jamoamiz birinchi o‘ringa loyiq ko‘rildi.

Viloyatning shahar va tuman IIBda o‘tkazilgan «Men jamiyatning faol a’zosiman» mavzusidagi ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda xodimlarning ishlashni xohlovchi oila a’zolari bilan suhbat o‘tkazilib, «Ishga marhamat» monomarkazi xodimlari, «Xalq banki» viloyat va tuman filiali rahbar o‘rinbosarlari tomonidan tegishli yo‘nalish hamda maslahatlar berildi. Tadbirlar davomida mehnat yarmarkasi ham tashkil etilib, 17 nafar xodimning turmush o‘rtog‘i ishga joylashtirildi. Shuningdek, uyida tadbirkorlik faoliyatini yuritish istagini bildirgan 3 nafar xotin-qizga subsidiya asosida tikuv mashinalari berildi. Qolaversa, xizmat vazifalariga vijdonan yondashib, yaxshi natijalarga erishgan 117 nafar xodimning turmush o‘rtog‘iga minnatdorlik xati va qimmatbaho sovg‘alar topshirildi.

O‘tgan oylar davomida ichki ishlar organlarida xizmat olib borayotgan 193 nafar xotin-qizning yashash sharoitlari o‘rganilib, ular bilan yakka tartibdagi suhbatlar olib borildi. 24 nafarining xizmat xonalari tekshirilib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar berildi. Xizmat intizomini mustahkamlash borasida shahodatlangan va erkin yollangan xotin-qizlar bilan 28 marotaba tarbiyaviy-profilaktik uchrashuvlar o‘tkazildi.

O‘tgan davr mobaynida bir nafar ayol xodimaga uy-joy sotib olishi uchun dastlabki badal pullarining to‘lab berilishi ta’minlandi, ikki nafar ayol xodimaga xizmat uylari ajratilib, besh nafariga ijara pullari oyma-oy to‘lab borilmoqda. Bundan tashqari, 26 nafar xodimaga turli xildagi ijtimoiy yordam berildi.

Qisqasi, ayol xodimalarimiz nafaqat yurtimiz osoyishtaligi, xalqimiz farovonligi yo‘lida o‘z zimmasiga olgan ma’suliyatlarini, balki oiladagi vazifalarini ham a’lo darajada bajarishda bor bilim va tajribasini ayamayotir.

Mehriniso YAKUBOVA,
Buxoro viloyati IIB MMI va KBTX boshlig‘i o‘rinbosari, podpolkovnik.

O‘tkir MUHAMMADXO‘JAYEV:
INSONNI YIG‘LATISH OSON, KULDIRISH QIYIN



San’atsevar xalqimiz mehrini o‘zining hazil-mutoyibaga yo‘g‘rilgan o‘z-bekona ijrolari bilan qozongan qiziqchi, aktyor, boshlovchi, shu bilan bir qatorda, IIV Madaniyat saroyi Ashula va raqs ansambli boshlig‘i o‘rinbosari, podpolkovnik O‘tkir Muhammadxo‘jayev haqida so‘z ochilsa, barchaning yu-ziga birdek tabassum yuguradi. Taniqli ijodkor 1968-yilda Toshkent shahrida tug‘ilgan. U Toshkent davlat madaniyat institutining rejissyorlik fakultetida tahsil olib, ilk faoliyatini «Obid-A» teatrida boshlagan. 2002-yildan IIOda xizmat qiladi.

Taniqli san’atkor faoliyati davomida «Obid shou», «To‘ylar muborak», «Kulish shart» ko‘rsatuvlarida aktyor va boshlovchi sifatida ijod qilgan. Ho-zirda esa «Ertalabdan salom», «MTV Show», «O‘tkir tergov» kabi bir qator loyihalarda boshlovchi sifatida faoliyat olib boradi. «Shuhrat» medali sohibi.

– Komik ijrolari bilan xalqimiz qalbiga kirib ulgurgan aktyor, shu bilan birga, ichki ishlar or-gani xodimi sifatida ikkisini ham birdek olib borishga qiynalmay-sizmi?

– Komediya janrini yaxshi ko‘-raman. Xarakterim ham shunga mos. Necha yillar «Obid-A» teat-rida faoliyat yuritgan bo‘lsam, faqat kayfiyat uchun ishlaganmiz. Vaqt yugurik deganlari shu bo‘lsa kerak, ichki ishlar organlarida ham qariyb 23 yildan buyon xizmat qilib kelyapman. To‘g‘ri, jinoyatchi bilan yuzma-yuz kelmasligimiz mumkin, biroq xodimlarimizning mashaqqatli kasbida kayfiyatdoshmiz.

Endi o‘ziga xos jihatli sohalar-dagi faoliyatimga kelsak, bu menga qiyinchilik tug‘dirmaydi. Bilasizmi, insonni yig‘latish oson, kuldirish qiyin. Misol uchun, bi-ror xonandaning qo‘shig‘i muxlisga manzur bo‘lsa, «Takror eshitaylik» deb so‘rashadi. Lekin bitta lati-fani sahnada yoki biror dav-rada ikki marta aytsangiz, «Buni eshitganmiz-ku, yan-gisidan bo‘lsin», deyishadi. Shu bois qiziqchi sahnaga har gal shaylanib chiqishi kerak. Bunda fantaziyadan kelib chiqib improvizatsiya ham muhim jihat. Ayniqsa, o‘qi-gan kitob, gazeta-jurnalingiz, xalq orasida bo‘lib, ular bilan muloqot jarayonida olgan ma’lumotlaringiz juda qo‘l keladi. Juda ko‘p o‘qish kerak. «Ma’lumotlar sandig‘i» to‘la bo‘lgani durust.

Inson tafakkurini kitobdek bo-yituvchi bebaho xazina yo‘q. Men ota sifatida farzandlarimni ham ko‘p kitob o‘qishga undayman. O‘g‘lim Sanjar 16 yoshda. San’at sohasiga qiziqishi bor. Kichikli-gidan «Zumrasha» bolalar hajviy kinojurnalida ishtirok etib ulg‘aydi. Keyinchalik «Qor yog‘moqda, op-poq qor», «Imom Abu Iso Muham-mad Termiziy» singari filmlarda rollar ijro etdi. Unga kelajagingni san’at bilan bog‘lamoqchi bo‘l-sang, kitob o‘qishni kanda qilma, deyman.


– Endi «O‘tkir tergov» loyiha-sining ekran yuzini ko‘rishi, un-dan ko‘zlangan asosiy maqsad haqida gaplashsak...

– Loyihaning ilk ko‘rsatuvini ko‘pchilikka tanish bo‘lgan Laylo Aliyevaga taalluqli jinoyat ishidan boshladik. Xonandaning o‘limi bi-lan bog‘liq jinoyat ishi o‘z vaqtida juda katta shov-shuvlarga sabab bo‘lganini hammamiz yaxshi bila-miz. Keyin surishti-rishni boshladim. Hukm o‘qigan sudyani, tergovchi, hatto birinchi tekshiruvlarni olib borgan ekspert-kriminalistlarni ham topdim. Ularni bitta-bitta taklif qilib, intervyu ola boshladik. Intervyu berishga biroz ikkilanganlar ham bo‘ldi, albatta. Bu borada xodimligim qo‘l keldi.

Va nihoyat, ushbu jinoiy ish bo‘yicha ko‘rsatuv yakunlandi va efirga ketdi. Menimcha, yomon chiqmadi, ancha shov-shuvlarga sabab bo‘ldi.

Shundan keyin ish stolimizga ketma-ket oliy sud, ichki ishlar, prokuraturadan, viloyatlardan ji-noyat ishlari kelib tusha boshladi. Ko‘rsatuvimizning har bir soni mu-hokama mavzusiga aylana bordi, bizni qo‘llab-quvvatlaydiganlar ko‘paydi. Mana, hozir loyihamiz efir yuzini ko‘rganiga bir yildan oshdi, ko‘rsatuvning 56 ta soni to-moshabinlar hukmiga havola etildi.







– Ko‘rsatuvdagi mavzular juda keskin jinoyat ishlari tafsi-lotlarini ochiqlaydi, ular qanday saralanadi?

– Tomoshabinlar e’tiborini tor-tish va ko‘rsatuv qiziqarli chiqishi uchun harakat qilamiz. Muxlislar-dan ham yaxshi takliflar keladi.

Andijon, Farg‘ona, Samarqand, Surxon-daryodan takliflar kelib tusha boshladi. Biz ular-ni saralab, maqbullarini efirga berib boryapmiz.

– Bu ko‘rsatuv salbiy ta’sir qiladi-ku, degan fikrlar ham bo‘ldimi?

– Mevali daraxtga tosh otiladi, deganlaridek, tanqi-diy fikrlar ham bo‘ldi. Kimlardir Rossiyadan namuna olibsizlar, deyishdi. Dunyo televideniyesi detektiv voqealar, asarlarni efirga berishadi. O‘z televideniyemizda ham «Bir jinoyat izidan», «Jinoyat izi» singari dasturlar bo‘lgan. Faqat bunday ko‘rsatuvlar doimiy ravish-da ketmagan.

Shu o‘rinda ko‘rsatuvdan ko‘z-lagan maqsadimizni aytib o‘ti-shim kerak. Shunday tinch, osuda mamlakatda bunday mudhish voqealarni ko‘rsatish shartmikin, degan savolni o‘zimga-o‘zim ko‘p berib ko‘rganman. Biroq o‘ylamay bosilgan qadam qayergacha olib borishini, uning oqibatlari qan-chalar og‘irligini ko‘rsatishga ha-rakat qilyapmiz. Toki, jinoyatchilik ko‘paymasin, hech bo‘lmaganda, «O‘tkir tergov»ni qiziqib ko‘radigan muxlislarimiz orasida yoshlar ko‘p, shular ko‘rib, to‘g‘ri xulosa qilsa, jinoyat ko‘chasiga kirmaydi.

– Jinoyat voqealari ta’siriga tushib qolgan vaziyatlaringiz ham bo‘ladimi?

– Ba’zan tasvirga olayotgani-mizda voqealar jarayonini kuza-tarkanman, badanimda chumolilar o‘rmalagandek bo‘ladi. Boshlov-chiman, gapirganda ta’sirlanib ketganimni sezdirmaslikka harakat qilaman. Ko‘pincha 2–3 kun yel-kamga tog‘ ag‘darilib tushgan-dek tafsilotlar ta’sirida bo‘laman. Chunki tabiatan birovning taqdiriga befarq emasman.

– Jinoyatchilarning keyingi taqdiri bilan ham qiziqqanmisiz?

– Yaqinda bir ko‘rsatuvdan uch kun o‘tib menga telefon bo‘ldi. Aloqadagi kishi juda xushmuo-malalik bilan «O‘tkirjon, yaxshi-misiz, kecha «O‘tkir tergov»da ko‘rsatilgan inson menman», dedi. Birdan ustimdan muzdek suv quyib yuborgandek bo‘ldi. Sakkiz yil o‘tirib, oqlanib chiqqan ekan. Manzilini berdi. Bordim. Ko‘rishib, gaplashib, oqlaydigan biror narsa qilaylik, devdim, «Yo‘q, taqdirimda bor ekan, bo-shimga shunday ishlar tushdi. Oqlanib chiqdim, oilam bag‘riga qaytdim, mana, bola-chaqa bilan yashab yuribman», dedi.

Biz ko‘pincha qahramonlar-ning ism-sharifini shartli ravishda o‘zgartirib beramiz. Eng qizig‘i, aynan shu odamning keyingi taq-diri noma’lum bo‘lgani uchun ism-sharifini ham o‘zgartirmagan edik. Birpasda egasi chiqib qoldi.

– Siz bilan yangi yilning ilk kunlarida suhbatlashyapmiz. Yurtdoshlarimizga, gazetamiz-ning mushtariylariga tilaklarin-giz.

– El-yurt tinchligi posbonlariga yangi yil omadli kelsin. Hamkasbla-rimizga, avvalo, sog‘liq-salomatlik tilayman. Unvonlari, martabalari ulug‘ bo‘lsin! Erta tongda uyidan sog‘-salomat xizmatga otlanib, kechqurun bola-chaqasining bag‘-riga yuzlari yorug‘ bo‘lib qaytsin!

– Mazmunli suhbatingiz uchun tashakkur!

Gulnoza TURG‘UNBOYEVA suhbatlashdi.

14-YANVAR – VATAN HIMOYACHILARI KUNI

TINCHLIK BO‘LSIN DUNYODA

Tinchlik-osoyishtaligimiz, farzandlarimizning o‘sib-ulg‘ayishlari, komil inson bo‘lib voyaga yetishlarida, shubhasiz, Vatan himoyachilarining o‘rni beqiyos. Yuragidan Vatan va xalq sevgisi joy olgan shijoatli o‘g‘lonlar yurt sarhadlarini sergaklik bilan qo‘riqlamoqda. Yigitlarimiz ota-onasi va oilasini, o‘zi yashayotgan yurt tuprog‘ini muqaddas bilib, Vatan himoyasi uchun doimo shay turishni sharafli burch hisoblagan.



Mudofaa vazirligi Ma’naviyat va madaniyat departamentida har yili an’anaviy tarzda o‘tkaziladigan «Mardlar qo‘riqlaydi Vatanni!» harbiy-vatanparvarlik qo‘shiqlari ko‘rik-tanlovining respublika bosqichi bo‘lib o‘tdi.

Tanlovda Qurolli Kuchlar kuch tuzilmalari tarkibidagi professional va havaskor ijodkorlar sifatida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar va yoshlar katta sahnada o‘z mahoratlarini namoyish etishdi. Quvonarlisi, professional ijodkorlar o‘rtasida estrada qo‘shiqlari yo‘nalishi bo‘yicha Ichki ishlar vazirligi Madaniyat saroyi Ashula va raqs ansambli a’zolari g‘oliblikni qo‘lga kiritgan bo‘lsa, havaskor ijodkorlar o‘rtasida vatanparvarlik ruhidagi lirik qo‘shiqlar yo‘nalishida IIV Ixtisoslashtirilgan maktab-internatining 5-sinf o‘quvchisi Muzaffar Qayumov faxrli 2-o‘rinni egalladi.

— Tanlovda O‘zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo she’riga Zokirjon To‘ychiyev bastalagan «Tinchlik» nomli qo‘shig‘imiz bilan jamoaviy ishtirok etdik. Yutug‘imiz butun jamoamiz hamda ichki ishlar organlarida xizmat qilayotgan barcha xodimlarniki, — deydi IIV Madaniyat saroyi Ashula va raqs ansambli xonandasi, «Nihol» davlat mukofoti sovrindori, safdor Farhod Qambarov.

G‘olib va sovrindorlar diplom, pul mukofotlari bilan tantanali taqdirlandi.

Abror POYONOV,
o‘z muxbirimiz.

AN’ANALAR BARDAVOM

TO‘G‘RISO‘Z SHOGIRD

Qaysi sohada bo‘lmasin, ustozlar sabog‘ini olmagan yosh xodimlar qiynalishi bor gap. «Ustoz ko‘rmagan shogird har maqomga yo‘rg‘alar» deb bejiz aytilmagan. Shu ma’noda leytenant Mirolim Rizaqulov peshonasi yarqiragan shogirdlardan. Lavhamiz qahramoni 2024-yil boshida sohaga endi kirib kelganida, boy tajribaga ega mayor Shokirjon Malikov unga murabbiy etib biriktirildi.

Profilaktika inspektori, leytenant Mirolim Rizaqulov Uchquduq tumanidagi «Altintau» ovuli osoyishtaligi uchun mas’ul. Xizmat hududida 593 nafar aholi istiqomat qiladi. Ovuldagi uylar bir-biridan uzoqroq joylashgan va aholining turli millatlarga mansubligi Mirolimga biroz qiyinchilik tug‘diradi. Ana shunday kezlarda ustozi – Uchquduq tumani IIB JXX HPB profilaktika inspektori, mayor Shokirjon Malikov unga xizmatining nozik jihatlarini o‘rgatib, muammolarini hal etishda ko‘maklashadi. Hozirda yosh inspektor profilaktik hisobdagi 2 nafar fuqaroni ish bilan ta’minlash choralarini ko‘ryapti. Mayor Shokirjon Malikov shogirdi haqida shunday deydi:



– Mirolim harakatchan, anchayin qat’iyatli, ayni chog‘da ko‘ngilchan yigit. Sohaga qiziqishi tufayli xizmatga kirishishi unchalik qiyin bo‘lmadi. Uning har qanday holatda ham to‘g‘riso‘z ekanligi menga yoqdi. Ovul aholisining murojaatlarini o‘rganish jarayonida yonimda yurib, odamlar bilan muloqot qilish hadisini oldi. Me’yoriy hujjatlarni rasmiylashtirish ko‘nikmalarini ham egalladi. Unga doimo masalaga har tomonlama yondashish, xolis bo‘lish, faqat dalillarga tayanib ish ko‘rish va xulosa chiqarish lozimligini uqtiraman.

Mayor Shokir Malikov ichki ishlar organlarida faoliyatini boshlashdan avval 8 yil mobaynida Bolalar va o‘smirlar sport maktabida dzyudo bo‘yicha saboq berdi, ko‘plab chempionlar tarbiyalab yetishtirdi. Hozirda ham Mirolim Rizaqulov bilan muntazam sport mashg‘ulotlariga qatnashadi. Shogirdiga «Ichki ishlar organi xodimi uchun jismoniy barkamollik juda muhim», deya ta’kidlaydi.

Mahliyo XOLOVA,
o‘z muxbirimiz.
Navoiy viloyati.

QALAMDAN BESH O‘RNAK

– Vu-uy, qalamingiz buncha chiroyli, bobojon. Menga bering.

Otaxon yozishdan to‘xtadi. Nabirasining chaqnab turgan ko‘zlariga mehr bilan termildi.

– Beraman, bolajonim, albatta, beraman. Shuni yozib olay.

Bolakay qoralangan qog‘ozga bir muddat tikilib turib, xonasiga kirib ketdi. Anchadan keyin otaxon yozishni tugatib, to‘rt buklangan qog‘oz orasiga qalamni soldi. Uxlab yotgan nabirasining bosh tomoniga qo‘ydi. Unda bunday so‘zlar bitilgan edi:

«Mening aziz bolajonim. Katta bo‘lganingda, xuddi qalamga o‘xshashingni istardim. Uning beshta xususiyati bor. Inson bo‘laman desang, qalamdan ham o‘rnak ol.

Birinchidan: o‘zingni har qancha dono bilsang ham, seni yurgizib, yo‘naltirib turgan Qo‘l borligini zinhor unutma. Shu Qo‘lga suyanishni, uning izmida bo‘lishni o‘rgan.

Ikkinchidan: yengil, ravon yozishi uchun qalamni vaqti-vaqti bilan charxlab turish kerak. Bu – og‘riqli jarayon. Ammo biror natijaga erishmoqchi bo‘lsang, mashaqqatlarni sabr bilan yengishga to‘g‘ri keladi. Zero, insonni sinovlar toblaydi.

Uchinchidan: qalamda yoza turib, xatoga yo‘l qo‘ysang, o‘chirg‘ichda to‘g‘rilasa bo‘ladi. Mard insongina xatosini tan oladi, o‘zini isloh qilishdan erinmaydi, or ham qilmaydi.

To‘rtinchidan: qalamning shakl-u shamoyili emas, ichidagi o‘zagi muhim. Shunday ekan, qalbingda yaxshiliklarni saqla. Har qanday vaziyatda qat’iyatingni yo‘qotma.

Beshinchidan: qalam o‘zidan iz qoldiradi. Shu kabi sening ham birorta amaling izsiz ketmaydi. Demak, qadamingni o‘ylab bos. Ortingdan faqat ezguliklar qolsin.

Seni yaxshi ko‘rgan Bobojoning».

SALOMATLIK SABOQLARI

QO‘L VA OYOQ NEGA MUZLAYDI?

Sovuq ob-havo sharoitida qo‘l va oyoqlarning muzlashi tabiiy hol, albatta. Chunki havo sovib ketganida miya qo‘l va oyoq qon tomirlarini siqilishga majbur etadi. Shu tariqa, bu a’zolarda qon aylanishi cheklanib, natijada qon ulardan muhimroq ichki a’zolarda kamroq muzlaydi va issiqlikni ushlab turishga yordam beradi. Qo‘l va oyoqlar barcha tana a’zolariga qaraganda birinchi bo‘lib muzlab, eng so‘nggi o‘rinda isiydi. Bu yashash mexanizmining zarur elementidir.





Biroq ba’zida havo sovuq bo‘lmasa ham, qo‘l va oyoqlar muzlab, hech isimasligi kuzatiladi. Buning bir necha sabablari bo‘lishi mumkin. Masalan, temir moddasi yetishmovchiligi oqibatidagi kamqonlik. Soddaroq qilib aytganda, organizmda temir moddasi yetishmagani tufayli qonda gemoglabin miqdorining tushib ketishi natijasida nafaqat qo‘l-oyoqlar muzlashi, balki bemajollik, tez charchash, sochlarning to‘kilishi va tirnoqlarning mo‘rtlashishi ham kuzatiladi.

Qandli diabet kasalligi ham bunga sabab bo‘lishi mumkin, chunki qonda glyukoza miqdorining oshib ketishi tomirlarga salbiy ta’sir ko‘rsatib, ular o‘z egiluvchanlik holatini yo‘qotadi va torayadi. Buning oqibatida to‘qimalarga qon quyilishi yomonlashadi va qo‘l-oyoqlar muzlay boshlaydi.

Buyraklar bilan bog‘liq muammolarda tana shishadi, natijada tomirlar siqilib, qon aylanishi jarayoni buziladi. Surunkali uyqusizlik, odatda, modda almashinuvi hamda qon aylanishini sustlashtiradi.

Shuningdek, noqulay yotish yoki o‘tirish, vena qon tomirlarining varikozli kengayishi, xolesterin miqdorining oshib ketishi, chekish, yurak-qon tomir faoliyatidagi buzilishlar, uzoq vaqt o‘tirib ishlash oqibatida qon aylanishi bilan bog‘liq muammolar yuzaga keladi. Bosh aylanishi, qon bosimining oshishi, quloqda shovqin, xotiraning sustlashishi bilan kechuvchi aterosklerozda ham qo‘l va oyoqlar muzlaydi.

Shunday ekan, bunday muammolarni sezgan zahotingiz shifokorga murojaat qiling. Agar sizda yuqoridagi kasalliklar aniqlanmagan bo‘lsa-da, oyoq-qo‘llarning muzlashi kuzatilsa, u holda:

* issiq va sovuq dush qabul qiling. Bu tomirlarni mustahkamlaydi, harorat almashinuvi qon aylanishini yaxshilaydi, organizm bo‘ylab kislorod va boshqa foydali moddalar tarqalishiga xizmat qiladi;

* to‘laqonli va o‘z vaqtida ovqatlaning;

* oyoq-qo‘llarni massaj qiling;

* kechqurun uyqu oldidan 10–15 daqiqa oyoq-qo‘llarni iliq suvga solib o‘tiring;

* achchiq taomlarni ko‘p iste’mol qilmang;

* taomnomaga, albatta, baliq, baliq yog‘i, go‘sht mahsulotlarini kiriting. Baliq tomirlar uchun foydali bo‘lgan omega-3 va omega-6 yog‘ kislotalariga boy, go‘shtda esa temir moddasi ko‘p bo‘lib, bu qon aylanishini faollashtiradi.

Bundan tashqari, qo‘l-oyog‘i muzlab yuradigan insonlar yetarli miqdorda suyuqlik iste’mol qilishi lozim. Qishda bu ichimliklar iliq yoki issiq bo‘lgani ma’qul. Organizmda suyuqlik miqdorining me’yorida bo‘lishi qon aylanishi va issiqlik almashinuvi jarayonini tartibga solishga ko‘maklashadi.

Gulchehra AZIMOVA tayyorladi.

ПРАВИЛА ИДЕАЛЬНОГО УЖИНА

Ужин – важный прием пищи, который ни в коем случае нельзя пропускать, ведь именно в это время можно расслабиться, отдохнуть после рабочего дня, провести время с семьей. Давайте разберемся, почему же не стоит пренебрегать качественным ужином, и как он влияет на наш организм.



Полноценный ужин необходим, так как он является важной частью построения системы рационального питания. Сбалансированное меню, с регулярным вечерним приемом пищи, гарантирует не только отсутствие чувства голода в ночное время, но и хорошее самочувствие в течение следующего дня.

Более того, есть еще масса причин не пропускать ужин, ведь он:

борется с бессонницей. Доказано, что полноценный прием пищи сокращает время на засыпание, обеспечивает крепкий сон и дает заряд бодрости для начала нового дня;

укрепляет иммунитет. Состояние здоровья, в частности, зависит от питания. Правильный рацион помогает иммунитету, повышая сопротивляемость организма к различным инфекциям;

поднимает настроение. Вечерняя трапеза дарит ощущение спокойствия и наслаждения, а когда появляются положительные эмоции, от негативных мыслей не остается и следа;

улучшает состояние кожи, волос и ногтей. Достаточное количество витаминов улучшает состояние здоровья, поэтому поступление полезных веществ, микро- и макроэлементов в оптимальном объеме помогает выглядеть красиво.

Теперь разберемся в основных принципах сбалансированного питания в вечернее время.

Грамотный подход к вечерней трапезе предполагает выбор таких блюд, которые готовятся из доступных продуктов. Чтобы рецепты были не только полезными, но и поднимали настроение, следует отдавать предпочтение самым вкусным и оптимальным вариантам.

• Овощной салат или рагу. Это отличный вариант обогащенного клетчаткой и витаминами ужина на каждый день. Старайтесь использовать сезонные овощи в процессе готовки для максимальной пользы.

• Запеченная рыба. Рыба – прекрасный продукт, подходящий для полезного и сытного ужина, ведь она богата белком и аминокислотами. Хорошим вариантом будет белая рыба, например, минтай, окунь, карась, треска или судак.

• Рис с котлетой из цыпленка. Рис заслуженно считается правильным гарниром для ужина. Регулярное его потребление способствует спокойному и продолжительному сну. Не менее полезными считаются куриные котлеты, приготовленные на пару. Благодаря деликатной термической обработке в них сохраняются аминокислоты, белки, калий и фосфор.

• Паштет с цельнозерновым хлебом. В качестве дополнения к основным блюдам подайте бутерброды из цельнозерновых тостов с паштетом из рыбы и мяса.

Отголоски праздника

ДАРИ ДОБРО!



В Ташкентском академическом лицее № 1 МВД с участием воспитанников Дома милосердия № 30 Яшнабадского района столицы состоялось праздничное новогоднее мероприятие.

Теплая атмосфера, искренние улыбки заполнили зал, создавая настоящую сказку для мальчишек и девчонок. Программа включала музыкальные и танцевальные номера, конкурсы и викторины. Бурными аплодисментами зрители встретили выступление военно-спортивной команды «Қалқон». Новогодние персонажи вручили ребятам подарки и сладости.

Мероприятие в очередной раз напомнило о том, как важно делиться добротой и вниманием: их сила в способности объединять людей, дарить радость.

Юрий ЛИ,
педагог.



СКАНВОРД

									Скажите по-испански «челнок»		Автор дурацких законов		Кто прыгал на хвосте?
Садальский		Ирина из группы «Фабрика»		Задача прокуратуры		Капля, которой Москва не верит		Друг из Мадрида					
									«Летающая лавка»		Рабочий инструмент дятла		Имя фон Бисмарка
Ввод в эксплуатацию		Молодежное сборище		Место для публики		Что придает кораблю балласт?		Кеннеди					
									Сорт французского сыра				
И ГАЗ, и МАЗ, и ВАЗ					Блестка от сварочного аппарата		Набитый сеном матрас		Страна, знаменитая бегунами	Лучшая часть стада		... на место происшествия	Театральная трагедия
Легкая рябь на воде	Биополе человека		Фиговый прикид							Латунь минус медь			
				Бог с головой осла		Недорослль					Значение клавиши «Enter»		Крестец, копчик и две кости
	От чего может спасти пергола?		Азиат с жадными глазами					«Блеск и ... куртизанок»					
						Вратарь с кличкой «Черный паук»					Второй человек после босса		
	Спортсмен-«ударник»		Грохочущий на поле (песен.)					Японские братки					

MUNAJJIMLAR BASHORATI

(6-yanvardan 12-yanvargacha)



Qo‘y. Hafta atrofdagi odamlar orasidagi obro‘ va nufuzingizni oshirish, ijodkorlik va hamkorlikni rivojlantirish uchun maqbuldir. Avvalo, tashqi ko‘rinish va salomatlikka jiddiy e’tibor qarating. Jismonan og‘ir vazifalardan imkon qadar uzoqlashing.



Buzoq. Bu hafta siz uchun omadli keladi. Bundan unumli foydalangan holda ish joyida va oila orasidagi munosabatlarni yaxshilash va mustahkamlashga harakat qiling. Yaqinlaringizga ko‘proq mehr ko‘rsating, farzandlar tarbiyasiga, ularning hayotida yuzaga kelgan muammolarga e’tiborli bo‘ling.



Egizaklar. Barcha reja va o‘ylab qo‘yilgan ishlarni amalga oshirish uchun omadli davr. Ushbu kunlar davomida hayotingizda moliyaviy, muhabbat va do‘stlik masalalarida keskin o‘zgarishlar kutilmoqda. Biroq ba’zi qarash va o‘y-fikrlarni qayta ko‘rib chiqishga to‘g‘ri keladi.



Qisqichbaqa. Ushbu kunlarda kayfiyatingiz ko‘tarinki bo‘lib, qo‘l urgan barcha ishlaringiz baroridan keladi. Bu hafta ham ishda, ham oilada o‘zingizni ko‘rsatish uchun yaxshi palla. Biroq bu jarayonda ortiqcha his-hayajonga berilmay, imkon boricha bosiqlik bilan ish yuritish lozim. Yaqinlaringizdan o‘z ko‘mak va mehringizni zinhor ayamang.



Arslon. Atrofingizdagi ba’zi odamlar bilan munosabatda muammolar yuzaga kelishi mumkin. Katta ahamiyatga ega bo‘lgan jiddiy loyihalarga hozircha qo‘l urmaganingiz ma’qul. Ammo uy ishlari va tashvishlarini hal etishni aslo ortga surmang.



Parizod. Ayni dam hayotingizda unumli va jadal rivojlanish jarayoni ketmoqda. Eski qarashlarni o‘tmishda qoldiring. Tanqidni xolislik bilan qabul qiling, xatolarni yo‘l-yo‘lakay tuzatishga o‘rganing. Birgalikda samarali ishlarni amalga oshirish uchun yaqinlaringiz bilan kelishib qaror qabul qilishga odatlaning.



Tarozi. Bu hafta davomida kuch-g‘ayrat, imkoniyat va salomatlik sizning foydangizga xizmat qiladi. Bundan unumli va maqsadli foydalanish o‘zingizga bog‘liq. Mazkur hafta oilaviy masalalarni hamda anchadan beri o‘z yechimini kutayotgan muammolarni hal etish uchun qulay davrdir.



Chayon. Bu davrda, ayniqsa, hafta boshida horg‘inlik va charchoq holati sizga hamrohlik qiladi. O‘zingizni o‘zingiz ruhlantiring, tasalli bering yoki bu masalada do‘stlaringizga murojaat qiling. Yaqin va qadrdon insonlar bu davrda ruhiy ko‘mak berib, sizni qo‘llab-quvvatlashadi.



O‘qotar. Bu davrda rejalashtirilgan muhim ish va uchrashuvlar muvaffaqiyatli kechadi. Davr bilan hamnafas bo‘lib, mavjud bilimlarni yangilari bilan uyg‘unlashtiring. Xizmatdoshlar uchun umumiy manfaatlarni ko‘zlovchi insonga aylaning.



Tog‘ echkisi. Bu hafta davomida juda ko‘p ishlarni amalga oshirishga to‘g‘ri keladi. Shu sababdan sizga yaxshigina hordiq zarur bo‘ladi. Hamkasblaringiz tomonidan aytilgan ba’zi noo‘rin gaplarga ahamiyat qaratmang. Imkon qadar ular bilan nizoga bormaslikka harakat qiling. Dam olish kunlarini sevimli va qadrli insonlar davrasida o‘tkazing.



Qovg‘a. Siz hatto eng kamgap va fe’li og‘ir insonlar bilan ham til topisha olasiz. Ushbu jihatdan foydalangan holda har qanday muammo va nizolarni hal qilish uchun mazkur hafta kunlari ayni muddaodir. Bu davrda ham shaxsiy masalalar, ham ish yuzasidan ko‘p joylarda bo‘lishingiz kutilmoqda. Faqat orada dam olishni unutib qo‘ymang.



Baliq. Shu kunlarda ish yuzasidan bir qancha takliflar kelib tushishi mumkin. Ularni qabul qilishdan oldin har bir jihatni sinchiklab o‘rganib, puxta o‘ylab ko‘ring. Farzandlaringiz hayotidagi muhim hodisalarni o‘tkazib yubormaslik uchun ular bilan ishonchli munosabat o‘rnatishga harakat qiling. Moliyaviy masalalarda diqqat-e’tiborli bo‘lish tavsiya etiladi.

Mulohaza

MISH-MISHNING AYANCHLI OQIBATI

Shunday odamlar borki, ular g‘iybat, fisq-u fasod bilan kun o‘tkazishni xush ko‘radi. Bunday kimsalarni xalq tilida «mish-mishchi», «g‘iybatchi», «gap tashuvchi» deb atashadi. Ular aslida jamiyat buzg‘unchilari, insonlar o‘rtasida kelishmovchilik, nifoq uyg‘otuvchilardir. Holbuki, bunday g‘ayrihuquqiy xatti-harakatlar qonunchilik nuqtayi nazaridan ham, dinda ham taqiqlangan. Barchamizga yaxshi ayonki, ba’zi insonlar fe’lida yolg‘on, shov-shuvli xabarlarga tabiiy moyillik mavjud bo‘ladi. Ular bunday xabarlarni tinglashdan, tarqatishdan huzur qilishadi va eshitgan gaplarining asl mohiyatini anglamasdan, tahlil qilmasdan, boshqa bir odamga yetkazishga shoshilishadi. Bu ham yetmagandek, unga bir-ikki yolg‘on tafsilotlarni qo‘shib, yanada «boyitishadi». Qarabsizki, hasadgo‘ylik bilan o‘ylab topilgan yolg‘on xabar «g‘iybatchi»lar tilida yanada «sayqallanib», eshitganlar uni xuddi hozirgina sodir bo‘lgan voqeadek qabul qilishadi.

Keling, shu o‘rinda hayotiy bir voqeani misol keltirsak. Halol mehnati bilan yaxshigina daromad topib, o‘ziga to‘q yashayotgan oilaning yaqin qo‘shnisi unga hasad ko‘zi bilan qaray boshlaydi. Turli ig‘volar, mish-mishlar tarqatib, ularning sha’nini bulg‘amoqchi bo‘ladi. Ammo u kishini va oilasini yaxshi bilgan mahalla ahli bu gaplarga parvo qilmaydi. Harakatlari besamar ketganidan achchiqlangan nopok kimsa yangi ig‘voni o‘ylab topadi. Emishki, «Kecha yarim tunda falonchining qizi bir notanish mashinadan tushib qoldi. U haydovchi yigit bilan shunday xayrlashdiki, aytishga tilim ham bormaydi. Ularni bir hafta burun ham o‘sha mashinada behayolarcha o‘tirishganini ko‘rgandim…»



Bu mish-mish tezda mahalla ahli orasida pinhona shov-shuvga aylanadi. Shundan so‘ng sovchilarning izi uzilmayotgan bu xonadonga hech kim qadam bosmay qo‘yadi. Oradan yillar o‘tadi. Gap-so‘zlardan ezilgan ota-ona hasad va mish-mishlar qurboni bo‘lgan o‘sha pokiza qizini noiloj turmush o‘rtog‘idan ajralgan yoshi katta bir kishiga uzatishga majbur bo‘lishdi.



Emishki, «Kecha yarim tunda falonchining qizi bir notanish mashinadan tushib qoldi. U haydovchi yigit bilan shunday xayrlashdiki, aytishga tilim ham bormaydi. Ularni bir hafta burun ham o‘sha mashinada behayolarcha o‘tirishganini ko‘rgandim...»

Yana bir voqea. Xorijda ishlayotgan yolg‘izgina o‘g‘lining vafot etganini eshitgan onaizor hushidan ketadi. Yaqinlari uni darhol kasalxonaga olib borishadi. Qon bosimining oshishi natijasida miyaga qon quyilgan ayolni zudlik bilan jonlantirish bo‘limiga yotqizishadi. Oradan bir-ikki soat o‘tgach, bu shum xabar yolg‘on bo‘lib chiqadi. Ma’lum bo‘lishicha, bozordan qaytayotgan ayol avtobusdagi yo‘lovchilarning suhbatini elas-elas eshitib, bu gapni qo‘shnisiga yetkazadi. U esa o‘ylab ham o‘tirmasdan bemor ayolning yaqinlaridan biriga ta’ziya izhor qiladi. Natijada quloqqa chalingan mish-mish tufayli bir begunoh inson umrbod nogiron bo‘lib qoladi. Mana mish-mishning, hasadgo‘ylikning, fisq-fasodning ayanchli oqibati.

Hayotda bunday oldi-qochdi xabarlarni tarqatuvchi vositalar juda ko‘p. Ularning eng xavflisi tiliga tushovi yo‘q, g‘iybatga ishqiboz odamlarning o‘zlari bo‘lsa, keyingisi ba’zi internet tarmoqlari, turli sayt va kanallardir. Bunday ijtimoiy tarmoqlar o‘zlarining yolg‘on ma’lumotlari bilan yoshlarimiz ongini zaharlashga intilishadi. Yaxshiyamki, hukumatimiz tomonidan bunday noxush holatlarning barvaqt oldini olish, huquqbuzarlarga nisbatan belgilangan tartibda qonuniy choralar ko‘rish bo‘yicha bir qator tezkor hamda maxsus profilaktik-targ‘ibot tadbirlari amalga oshirilmoqda. Fuqarolar hayotini, turmush tarzini noto‘g‘ri talqin etish, voqea-hodisalarning tub mohiyatini anglab yetmasdan turib xulosa chiqarish va targ‘ib qilish oqil insonning ishi emas.

Shunday ekan, turli bo‘hton, oldi-qochdi gap-so‘zlarga o‘ralashib qolmasdan, kuningizni xayrli va savob ishlarga bag‘ishlang. Zero, foydali amallar yurtimizning rivojlanishida, ma’naviyatimizning yuksalishida, xalqimizning tinch va osoyishta hayot kechirishida muhim omil bo‘ladi.

Mansurjon MANSUROV.
Xorazm viloyati.

Postda
На посту

MUASSIS:
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –
polkovnik Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o‘rinbosarlari –
podpolkovnik Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas’ul kotiblar –
Erkin SATTOROV

Navbatchilar –
Kamol OLLOYOROV
Radik TUMPAROV

Sahifalovchilar –
Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –
Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:
71-231-33-88;
Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari bo‘yicha:
71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355

Tahririyat hisob raqami h/r 23402000300100001010. Bank kodi 00014. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi g‘aznachiligi. Shaxsiy h/v 47001086026287703110117900l STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko‘chirib bosilganda manba ko‘rsatilishi shart.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxona manzili: 100206 Yunusobod tumani, Yangishahar ko‘chasi 1A-uy.

Gazeta O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Buyurtma № 3.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma taboq. 46285 nusxada chop etildi.
Obuna raqamlari:
Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:
100070, Toshkent shahri, Shota Rustaveli 1-berk ko‘chasi 9-uy.